

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI
TARIX FAKULTETI
JAHON TARIXI KAFEDRASI

Qo‘lyozma huquqida

AKBAROV ZIYOBEK

AFRIKADAGI MILLIY OZODLIK
HARAKATLARI TARIXIDAN (1960-YILLAR)

5120300 – “Tarix” (mintaqalar va mamlakatlar bo‘yicha) ta’lim
yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr akademik darajasini olish uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISH

Ish rahbari: katta o‘qituvchi.

G.Mamasoliyeva

Andijon – 2016

MUNDARIJA

1. Kirish.....	3-8
2. Afrikada mustamlaka sistemasining yemirila boshlashi.....	9-15
3. Shimoliy Afrika mamlakatlarining milliy ozodlik harakatlari.....	16-32
4. Tropik Afrika mamlakatlarining milliy ozodlik harakatlari.....	33-46
5. Janubiy Afrika mamlakatlarining milliy ozodlik harakatlari.....	47-60
6. Xulosa.....	61-69
7. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	70-71
8. Ilovalar	72

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasi istiqlolga erishishimiz natijasida jamiyatimizning barcha sohalarida tubdan o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Hususan, Vatanimiz va jahon tarixiga vatanparvarlik nuqtai nazaridan qiziqish ortmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov "Tarixga murojaat qilar ekanmiz, bu xalq xotirasi ekanligini nazarda tutishimiz kerak. Xotirasiz barkamol kishi bo'lmaganidek, o'z tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bo'lmaydi"¹ - deb ta'kidlab o'tadi. Sobiq sho'ro saltanati-yillarida eng qadimgi davrdan to XX asr oxiriga qadar bo'lgan tariximiz sohtalashtirildi. Endilikda ,ya'ni istiqlol-yillarida tarixshunosligimizda bir qator amaliy ishlar amalga oshirildi. Vatanimiz va jahon tarixiga e'tibor borgan sari rivojlanib bormoqda.

Hozirda jahon mamlakatlari tarixining har biratributiga e'tibor qaratish, uni o'rganish, tahlil qilish, xatolarni qo'llamaslik, ijobiy jihatlarni vatanimiz taraqqiyotida qo'llash muhim hisoblanadi.

O'zlikni anglash-eng avvalo o'tmishni o'rganishda, tarixga ehtiyoj sezishdan boshlanadi. Darhaqiqat o'zini angelayotgan, o'zini tushunayotgan xar bir inson o'z ajdodlari kim bo'lganligi, ota-bobolari nima bilan shug'ullanganligi va qanday hayot kechirganligini bilib olishga intiladi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "...yaqin vaqtlargacha ijtimoiy fanlar aslida siyosat manfaatlariga hizmat qilar edi. Bu esa ilmiy tadqiqotlar mavzusini belgilashga, bu tadqiqotlarning doirasi, harakteri va yo'nalishlariga, jamiyatshunos olimlarning dunyoqarashi va metodologiya yo'l-yo'riqlariga o'z tamg'asini bosdi"².

Afrika davlatlari ikkinchi jahon urushidan so'ng mustamlaka sirtmog'i azob-uqubatlarini tortib kelayotgan xalqlarning milliy-ozodlik kurashi yanada

¹ Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли. – Т.: Ўзбекистон, 1992. – Б.71.

² Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. – Т.: Ўзбекистон, 2011. – Б.88.

kuchaydi.

Xo‘sh, qanday omillar mustamlaka sirtmog‘ida yashayotgan xalqlar milliy-ozodlik kurashining kuchayishiga sabab bo‘ldi? Bular:

- Ikkinchi jahon urushida Germaniya, Italiya va Yaponiyaning mag‘lubiyatga uchraganligi;
- asosiy mustamlakachi davlatlar – Buyuk Britaniya va Fransiyaning zaiflashganligi;
- mustamlaka xalqlar milliy ongining o‘sishi;
- AQSH va Sobiq Ittifoqning o‘z siyosiy maqsadlari yo‘lida dunyoda mustamlakachi imperiyalar saqlanib qolishiga qarshi chiqqanligi.

To‘g‘ri, Afrikada mustamlakachilik tizimining barham topishi jarayoni Osiyodagiga nisbatan sekin borgan. Bu Afrika davlatlari qoloqligining, milliy ozodlik kurashiga rahbarlik qiluvchi ijtimoiy kuchlarning (milliy burjuaziya va milliy ziyolilar) zaifligi oqibati edi.

Dastlab Shimoliy Afrika davlatlari qattiq qonli kurash hisobiga mustaqillikka erishdilar. 1960-yil Afrika tarixiga “Afrika-yili” nomi bilan kirdi. Shu-yili bir yo‘la 17 ta davlat mustaqillikka erishdi.³ Buyuk Britaniya va Fransiya mustamlaka imperiyalari parchalanib borayotgan bir sharoitda Belgiya Kongo mustaqilligini tan olishga majbur bo‘ldi. Afrikaning ayrim mamlakatlarida mustaqillikka erishish nisbatan tinch yo‘l bilan (aholining ommaviy namoyishlari; fuqarolik bo‘ysunmasligi) amalga oshdi. Mustamlakachilik metropoliyadan ko‘chib kelib joylashgan bir guruh oq tanlilar jamoasiga tayangan joylarda esa og‘ir qurolli kurash olib borish yo‘li bilan mustaqillikka erishildi. 60-yillar oxiriga kelib ingliz, fransuz, belgiya mustamlakachi imperiyalari parchalandi. Faqat bir imperiya – Portugaliya imperiyasi yashashda davom etdi. Portugaliyaning Afrikadagi mustamlakalari (Mozambik, Angola, Gvineya-Bissau) uning dengizorti hududlari deb e‘lon qilingan edi. Bu “dengizorti hududlar” aholisining milliy-ozodlik kurashi 1974-yilgacha davom etdi va u g‘alaba bilan yakunlandi.

³ Родригес А.М. Новейшая история стран Азии и Африки XX века. – М.: 2005. – С.97.

Portugaliya o'z mustamlakalarining mustaqilligini tan olishga majbur bo'ldi..

1980-yilda yana bir mustaqil Afrika davlati – Zimbabve davlati vujudga keldi. Bu davlatning vujudga kelishi juda og'ir kechdi. Gap shundaki, Rodeziyada (Buyuk Britaniya mustamlakasi) kam sonli, biroq uyushgan oq tanlilar ham yashardi. Ular 1965-yilda Rodeziyani mustaqil deb e'lon qildilar. Biroq uni Buyuk Britaniya ham, BMT ham tan olmadi. Mahalliy afrikaliklar esa ozodlik uchun qurolli kurash boshladilar. Yakkalanib qolgan oq tanlilar 1979-yilda muzokara boshlashga majbur bo'ldilar. Uning oqibatida davlat afrikaliklar qo'liga o'tdi. 1980-yilda Rodeziya o'rnida mustaqil, yangi Zimbabve davlati tashkil etilganligi e'lon qilindi. Afrikadagi oxirgi mustamlaka Janubi-G'arbiy Afrika edi. Birinchi jahon urushiga qadar bu hudud Germaniya mustamlakasi bo'lgan. Urushdan so'ng Millatlar Ligasi uni boshqarish huquqini Janubiy Afrika Respublikasiga (JAR) berdi. JAR dastlab bu hududni o'ziga qo'shib olishga urindi. Buning uddasidan chiqa olmagach, u yerda oz sonli oq tanlilar hukumatini tuzishga harakat qildi. Bunga javoban mahalliy aholi 1966-yilda qurolli kurash boshlashga majbur bo'ldi. BMT 1973-yilda JARni Janubi-G'arbiy Afrikani boshqarish huquqidan mahrum etdi. Mahalliy aholining milliy-ozodlik kurashi 1989-yilda g'alaba bilan yakunlandi. Shu-yili Janubi-G'arbiy Afrika Namibiya nomi bilan mustaqil davlat deb e'lon qilindi. Shu tariqa mustamlaka Afrika xalqlari milliy-ozodlik kurashi g'alaba bilan yakunlandi. Bir vaqtlar deyarli butunlay mustamlakaga aylantirilgan Afrikada 52 ta mustaqil davlat vujudga keldi⁴.

Mavzuning o'rganilish darajasi. Biz o'rganishni o'z oldimizga maqsad qilib olgan mavzu, ya'ni “Afrika mamlakatlarining milliy ozodlik harakatlari tarixidan (1960-yillar)” mavzusiga ko'plab tarixchilar, siyosatchilar tomonidan murojaat qilinganligini ko'rib o'tishimiz mumkin.⁵ Masalan, tarixchi-olimlarning

⁴ Lafasof M. Jahon Tarixi. – T.: Turon Iqbol, 2010.- B.304

⁵ Александров В.В. Новейшая история стран Европы и Америки. – М.: 1988; Алиева А.С. Всемирная история в таблицах в схемах. – М.: 1999; Богданович И.Г. Страны мира энциклопедический словарь. – М.: 1999; Болоусов Л.С. История новейшего времени стран Европы и Америки 1945-2000 годы. – М.: 2003; Бузов В.И. История современного Востока XX–XXI века. Страны и правители. (Новейшая история Азии и Африки). – М.: 2008; Загладин Н.В. Всемирная История. Век XX. – М.: 1999; Кредер А.А. Новейшая история XX век. – М.: 1996; Лафасов М. Жахон тарихи. –Т.: 2009; Поляк Г.Б. Всемирная история. С

aynan shu davr tarixi bilan shug'ullanganligini men ko'plab adabiyot va internet tarmog'idagi mavzuga doir saytlardan bilib oldim va bitiruv malakaviy ishimni tayyorlashdan o'sha adabiyot va saytlardan keng foydalanishga harakat qildim.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari. Xar bir inson biror bir ishga kirishishdan avval albatta o'z oldiga maqsad va vazifalar qo'yadi. Jumladan, mening milliy ozodlik, xususan afrika mamlakatlarining milliy ozodlik harakatlariga qiziqishim yuqori ekanligi sababli dunyoni larzaga keltirgan va ko'plab talofatlarga sabab bo'lgan urushlarni yuzaga kelishiga sharoit yaratib bergan siyosiy o'yinlar va davlatlarning o'z manfaatlari yo'lida olib borgan siyosatlarini o'rganib tahlil qilishni o'z oldinga maqsad qilib qo'ydim. Afrikada urush harakatlarini vujudga kelishining asl mohiyatini ochib berish va o'rganuvchi va qiziquvchilarga mavzuni to'liq tushunishlariga ko'maklashish ham olib borayotgan tadqiqotimizning asosiy maqsadi hisoblanadi. O'rganayotgan davrdagi davlatlarning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy hayotini va mazkur davr diplomatiyasini tahlil qilish ham bitiruv malakaviy ishimizning vazifalaridan hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining xronologiyasi. Bitiruv malakaviy ishining xronologik davri 1960-yillarni o'z ichiga oladi. Lekin mavzuning ilmiy ahamiyati va uzviyligini hisobga olgan holda birinchi jahon urushidan kegingi davrdan, XX asrning 70-yillari oxirigacha bo'lgan davrni tahlil etishni lozim topdik.

Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti va predmeti. Tadqiqotning nazariy asosini Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov asarlari tashkil etadi⁶. Bitiruv malakaviy ishimiz birinchi jahon urushidan kegingi davrdan XX asrning 70-yillari oxirigacha bo'lgan davrlarni qamrab olganligi sababli asosiy e'tibor o'sha davrga oid nashrdan chiqqan maqolalar, ilmiy nashrlar, asarlar, ilmiy

древнейших времён до наших дней. – М.: 1997; Пономарёв М.В. История Европы и Америки в новейшие время в вопросах и ответах. – М.: 2008; Родригес А.М. Новейшая история стран Азии и Африки XX века. – М.: 2005; Родригес А.М. Стран Азии и Африки в новейшее время в вопросах и ответах. – М.: 2008; Хидоятлов Г.А. Всемирная история (1945-1999 гг.). –Т.: 2000; Язьков Е.Ф. История новейшая времени стран Европы и Америки в 1918-1945 годы. – М.: 1989.

⁶ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида хавфсизликка таҳдид: барқарорлик шартлари ва тарққиёт кафолатлари. –Т.: 1997; Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Тошкент, 1998., Каримов И.А. Юксак маънавият енгилмас куч. – Т.: 2008; Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. – Т.: 2011.

tadqiqot materiallari, mazkur davr to'g'risidagi materiallarga qaratiladi.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi. Biz o'rganishni o'z oldimizga maqsad qilib olgan mavzu ilmiy tadqiqot uchun yangi hisoblanadi. Mavzuimizga bog'liq mavzularda bir qator ilmiy tadqiqot ishlar amalga oshirilganligi bizga ma'lum. Aynan biz o'rganayotgan "Afrika mamlakatlarining milliy ozodlik harakatlari tarixidan (1960-yillar)" mavzusiga alohida to'htalmagan. Ushbu bitiruv malakaviy ishini tayyorlash jarayonida, biz ko'proq manbalarga, xrestomatik asarlarga va internet saytlaridan olingan ma'lumotlarga tayangan holda voqea-hodisalarni qiyosiy tahlil asosida uzviylik, izchillik, holislik prinsiplari asosida yoritib, tahlil qilishga harakat qildik.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati shundaki, jahon tarixidagi bu qisqa davr tarixi, undagi ro'y bergan ijtimoiy- iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar, turli xil nazariyalarning vujudga kelishini, siyosiy jarayonlar, ularning sabab va mohiyatini chuqur va har tomonlama o'rganish orqali yangi-yangi ma'lumotlar vujudga keladi. Bitiruv malakaviy ishining natijasiga ko'ra, bayon etilgan faktik materiallar va ilmiy xulosalardan Tarix fakulteti "Tarix" ta'lim yo'nalishi talabalari uchun o'tiladigan "Jahon tarixi (Eng yangi tarix)", "Xalqaro munosabatlar tarixi", "Siyosatshunoslik" va boshqa fanlar ma'ruza va seminar mashg'ulotlarida, talabalarning mustaqil ish, kurs ishlarini tayyorlashda, to'garak mashg'ulotlarini olib borishda manba bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi. Mazkur bitiruv malakaviy ishi tuzilish jihatidan kirish, to'rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati hamda ilovalardan iborat. Bitiruv malakaviy ishining umumiy hajmi ilovalardan tashqari elektron variantda 71 betni tashkil qiladi.

1. AFRIKADA MUSTAMLAKA SISTEMASINING YEMIRILA BOSHLASHI

Mustamlaka sistemasining yemirilish jarayoni manzarasi ayniqsa afrika qit'asi xalqlarining, milliy-ozodlik kurashi bosqichlarida yaqqol ko'rinadi. Bu xalqlar milliy ozodlik kurashining uch bosqichidagi xarakterli belgilari mavjud, ular quyidagilardan iborat.

Birinchi jahon urushi bilan ikkinchi jahon urushi o'rtasidagi davrda, ya'ni milliy ozodlik harakatining birinchi bosqichida afrika xalqlari orasida milliy-

ozodlik harakati keng ko‘lam kasb etdi, bu kurashga mustamlakalar aholisining barcha tabaqalari jalb etildi. Ayrim mamlaxatlarda yosh proletariyat kurashga otlandi. Sotsialistik va kommunistik gruppalar partiyalar paydo bo‘ldi, marksistik adabiyot keng tarqala boshladi dexqonlar harakati kuchaydi, ayrim mamlakatlarda mustamlaka zulmiga qarshi qo‘zg‘olonlar ham bo‘lib o‘tdi. Bu davr Afrika qitasi ozodlik harakatini birlashtirish uchun kurash bilan xarakterlidir. milliy-ozodlik harakatining ikkinchi bosqichi–ikkinchi jaxon urushidan 50-yillar ikkinchi yarmigacha bo‘lgan davr imperialistlarining mustamlakalarni yanada talashi, buning evaziga mustamlakalarga mustaqillik va’da qilishi bilan xarakterlidir⁷. Ikkinchi jaxon urushi Afrikani yangidan taqsimlash va imperialistlarning qitadagi mustamlakachilik mavqelarini mustaxkamlash uchun ham xizmat qilishi mo‘ljallangan edi. Milliy ozodlik harakatining ikkinchi bosqichi qit’aning ko‘pgina mamlakatlarida ozodlik uchun kurashuvchi milliy-demokratik partiyalar tashkil topishi, kasaba uyishmalari harakati kuchayishi, bir kator mamlakatlarda (Jazoir, Madagaskar, Keniya va boshqalar) mustamlakachilikka qarshi qo‘zg‘olonlar ko‘tarilishi va ayrim mamlakatlarning (Liviya, Misr) siyosiy mustaqillikka erishishi hamda umumafrika mustaqillik harakatining avj olishi bilan xarakterlidir.

Milliy ozodlik harakatining 50-yillar ikkinchi yarmidan boshlangan uchinchi bosqichi qit’adagi deyarli barcha mamlakatlarning mustaqillikka erishishi ularda iqtisodiy mustaqillik uchun, Irqchilik va Irqchilik hamda neokolonializmga qarshi kurash bilan xarakterlidir. Afrika ozodligi uchun kurashning bu bosqichida mustaqil mamlakatlarning taraqqiyot yo‘llari shakllandi, ularning jahon sotsializm sistemasi va xususan Sobiq Ittifoq bilan iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va siyosiy aloqalari kuchaydi. Qit’ada kapitalizmni chetlab, sotsialistik orientatsiya yo‘liga o‘tgan mamlakatlar ko‘payib bordi

20-yillar boshida (1921-yil) Misr kommunistik partiyasi tashkil topdi. Bu partiyaning programmasi antiimperialistik xarakterga ega bo‘lib, birinchi navbatda

⁷ Нуриддинов З.Р. Осиё ва Африка мамлакатларининг энг янги тарихи –Т.: Ўқитувчи, 1982.- Б.215

mamlakat mustaqilligiga erishish vazifasini qo'ygan edi. Afrikaning ikkinchi chekkasida–Janubiy Afrika Respublikasida ham o'sha-yili Kommunistik partiya tuzilgan edi.

Komunistik partiyalar Jazoir, Tunis va Marokashda ham vujudga keldi.

Qit'ada umumdemokratik harakat ham kuchaydi. 1920-yili ingliz G'arbiy Afrikasining Milliy kongressi tashkiloti tuzildi. Bu tashkilot qit'a g'arbidagi mustamlakalarni ozod etishni maqsad qilib-olgan edi. Keyinchalik Nigeriya Milliy-demokratik partiyasi, Madagaskar orolida Malagash milliy fronti tashkiloti vujudga keldi.

Misrda Angliya hukmronligiga qarshi xalq qo'zg'olonlari bo'lib o'tdi. Bu qo'zg'olonlar Angliyaning butun qit'adagi mustamlaka hukmrokligiga qaqshatqich zarba berdi.

1921-yili Marokashda rif qabilalari ispan mustamlaka zulmiga qarshi ko'zg'olon boshladilar. Natijada ozodlik harakatining atoqli arbobi Abdul Karim boshchiligida Rif respublikasi tashkil etildi. Bu respublika besh-yil yashadi va ko'pgina demokratik, xalqchil tadbirlar o'tkazdi. 1926-yilga kelgandagina Ispaniya va Fransiyaning birlashgan qo'shinlari harakati tufayli respublika tor-mor etildi.

1918–1919-yillarda Nigeriyada, Gambiyada, S'erra-Leoneda dohqonlar qo'zg'olonlari bo'lib o'tdi. 1922-yili Dagomeyada kuchli namoyishlar, Kamerun va Togoda xalq qo'zg'olonlari kuchaydi.⁸

Kominternning II kongressi milliy-ozodlik harakatlarini qo'llab-quvvatlash, mustamlaka va qaram mamlakatlarda ob'ektiv jihatdan revolyutsion rol o'ynayotgan burjua demokratiyasi bilan vaqtincha bitimlar tuzish va ittifoq o'rnatish to'g'risida, millatlarning o'z taqdirini o'zi belgilashi huquqi, dehqon Sovetlari va mexnatkashlar Sovetlari tuzish g'oyasini yoyish haqida xulosalar chiqardi. Kongress metropoliyalardagi kompartiyalar bilan mustamlaka mamlakatlardagi kompartiyalar o'rtasida, mazlum xalqlar bilan ilg'or proletariat o'rtasida, milliy-ozodlik uchun kurashayotgan barcha xalqlar bilan Sovet Rossiyasi

⁸ Родригес А.М. Новейшая История стран Азии и Африки XX века. - Москва, 2005. – С.65-66.

o'rtasida eng yaqin aloqalar o'rnatish to'g'risida tegishli ko'rsatmalar berdi. Qit'ada xalqlarning internatsional birlik va hamkorlik harakati–panafrika harakati paydo bo'ldi. Bu harakatga amerikalik negr, atoqli olim va jamoat arbobi Uilyam Dyubua boshchilik qildi. Panafrika I kongressi 1919-yili Parijda bo'lib o'tdi. 9 mamlakat vakillari qatnashgan bu kongress mustamlakachi davlatlardan qit'ada qulchilikni tugatishni, afrikaliklar uchun hokimiyat mahalliy organlari hamda maorif ishlarini boshqarishda qatnashish huquqlarini berishni, nihoyat qit'ani afrikaliklar boshqarishi talablarini oldinga surdilar, keyingi panafrika kongrestlari ham mustamlaka xalqlarni kurashga davat etdi.

1945-yil oktyabrda Manchesterda (Angliya) o'tgan V panafrika kongressida qatnashchilaridan ko'pchiligini afrikalik vakillar tashkil yetgan. Kongress qatnashchilari orasida ishchilar, partiya va kasaba soyuz aktivlari, milliy-ozodlik tashkilotlarining rahbarlari ham bor edi. Delegatlar tarkibi qabul qilingan qarorlarga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Kongress xalqlarni milliy mustaqillikka erishish uchun birlashishga, samarali ishlaydigan milliy ozodlik tashkilotlari tuzishga chaqirdi.

Afrika halqlarining milliy-ozodlik kurashida 1927-yil fevralda bryusselda o'tkazilgan mazlum xalqlar kongressi va shu kongress tuzgan Antiimperialistik Liga o'ziga xos rol o'ynadi. Kongress ishlarida Shimoliy va Tropik, Afrikadagi bir qator mamlakatlarning vakillari ham ishtirok etdilar.

Mustamlakachi davlatlar jahon iqtisodiy krizisining barcha og'irliklarini mustamlaka va qaram mamlakatlar aholisi gardaniga yuklashga harakat qildilar. O'sha-yillari qit'a mamlakatlarida dehqonlar g'alayoni kuchaydi. Kongo, Yuqori Volta, Dagomeya, Oltin Qirg'oq va S'erra-Leoneda dehqonlar g'alayonlari ayniqsa uzoq davom etdi. Ishchilar sinfi o'z iqtisodiy ahvolini yaxshilash uchun ish tashlash harakatini kuchaytirdi. Jahon iqtisodiy krizisi-yillarida qit'a mamlakatlarida ocharchilik, turli kasalliklar avj oldi. Bu mustamlakachilarni ayrim ijtimoiy islohotlar o'tkazishga majbur qildi.

Ikkinchi jahon urushi-yillarida mustamlakachi davlatlar mustamlakalarini

ayniqsa ayovsiz taladilar, urush davrining favqulodda qonunlarini mustamlakalarda ham joriy etib, milliy-ozodlik harakatini shafqatsizlik bilan bostirdilar. Imperialistik davlatlar taqsimlab olingan Afrikani yana qayta taqsimlashga kirishgan edilar.

1941-yil oxirida ingliz qo'shinlari Italiya Somalisini bosib oldilar. O'sha-yili italyan qo'shinlariga qarshi kurash bahonasida Efiopiyaning ham egallab olish choralari izladilar. 1942-yil yanvarda Angliya Efiopiyani o'z Ogaden viloyati va boshqa bir qator o'lkalaridan mahrum qilgan asoratli bitimni imzolashga majbur etdi. Bu territoriyalar Britan Somalisiga qo'shib olingan edi⁹.

AQSh 1941–1943-yillarda Shimoliy Afrikada (Jazoir va Marokashda) mustahkam o'rnatib olib, fransuzlarni siqib chiqarishga intildi.

Imperialist davlatlar o'z mustamlakachilik hukmronliklarini urushdan keyin ham to'liq saqlab qolishga harakat qildilar, arimas islohotlar bilan mahalliy xalq ommasini chalg'itish va yupatishga urinib ko'rdilar. Bu sohada fransuz imperializmi ayniqsa ko'p ig'vogarlik va xiyla-nayrang ishlatdi. Jumladan, mehnatkashlarga kasaba soyuz tashkilotlari va siyosiy partiyalar tuzishga ruxsat berdi.

Imperialistlar ayni mahalda mustamlaka va qaram mamlakatlarida qattiq jazo choralari qo'lladilar. Angliya mustamlakachilari 1949-yili Ugandadagi, 1952–1956-yillari Keniyadagi xalq qo'zg'olonlarini o'ta shafqatsizlik bilan qonga botirdilar.

Ma'lumki, ikkinchi jahon urushi kapitalistik sistemaning, jumladan, asosiy mustamlakachi davlatlar–Angliya, Fransiya, Belgiya, Gollandiyaning ancha zaiflanishi va aksincha, sotsializm kuchlarining o'sishi va mustahkamlanishi bilan tugadi. Mustamlakalarda milliy-ozodlik kurashining keng ko'lamda rivojlanishi uchun ham tashqi, ham ichki qulay shart-sharoitlar paydo bo'ldi.

Bunday sharoitda 1949-yili Kanada Xalq konventi partiyasiga asos solindi.

⁹ Нуриддинов З.Р. Осиё ва Африка мамлакатларининг энг янги тарихи –Т.: Ўқитувчи, 1982.- Б.218.

Bu partiya mamlakatga darhol mustaqillik berish talablari bilan chiqdi.

Dakarda 1947-yili umumafrika kasaba uyishmalarining konferensiyasi bo‘lib o‘tdi. Konferensiyada qit’adan 19 mamlakat kasaba uyishmalari vakillari qatnashdi. Afrika yoshlari harakati qit’a xalqlarining ozodlik kurashida muhim rol o‘ynadi. Yoshlar harakatining ko‘pgina rahbarlari keyinchalik ozodlik harakatining yirik arboblari aylandilar.

Afrika xalklari milliy mustaqillikka juda katta qiyinchiliklar, revolyutsion jangu jadal bilan erishganliklarini qit’ada so‘ngi 100-yil ichida mustamlakachilar 130 dan ortiq yirik urush va jazolash operatsiyalari o‘tkazganligi ham yaqqol tasdiqlaydi. 1918-yildan keyingi kurash-yillaridayoq qit’a xalqlari 8 milliondan ortiq ozodlik fidoiylari bo‘lgan farzandlaridan ajradi.

Sobiq Sovet Ittifoqi 1960-yili Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) Bosh Assambleyasi XV sessiyasi, muhokamasiga g‘oyat muhim masalaning mustamlaka va qaram xalqlarga mustaqillik berish masalasini kiritdi, shu haqdagi Deklaratsiya loyihasini taqdim etdi. Bosh Assambleya sessiyasi ko‘pchilik ovoz bilan qabul qilgan Deklaratsiyaga Sovet hukumatining loyihasi asos qilib olindi. BMTning mustamlaka va qaram xalqlarga mustaqillik berish haqidagi bu Deklaratsiyasi jahondagi barcha milliy-ozodlik harakatlarining buyuk g‘alabasi bo‘ldi.

Imperialistik davlatlar BMTning mustamlaka xalqlarga mustaqillik berish haqidagi Deklaratsiyasidan keyin ham sobiq mustamlakalaridagi milliy-ozodlik kuchlariga putur yetkazishga harakat qildilar. 1961-yili xalqaro imperializm Kongo (Kinshasa)ga (1971-yildan boshlab Zair Respublikasi).yurish uyushtirib, Patris Lumumba hukumatini ag‘darish, mamlakatni bo‘lib yuborishga intildilar. Natijada bu milliy hukumat ag‘darildi, kongolez xalqi qahramoni P.Lumumba yovuzlarcha o‘ldirildi.¹⁰

Afrika qit’asdaing deyarli barcha mamlakatlarida 60–70-yillardagi milliy-ozodlik revolyutsiyalari ikki bosqichni bosib o‘tdi. Birinchi bosqichda shu mamlakatlardagi revolyutsion kuchlar bilan bir qatorda milliy burjuaziya ham aktiv

¹⁰ Родригес А.М. Новейшая История стран Азии и Африки XX века. - Москва, 2005. – С.215.

harakat qildi. Milliy-ozodlik harakatlari g'alaba qozongach, ya'ni siyosiy hokimiyat qo'lga kiritilgach, milliy burjuaziya revolyutsiyadan chekina boshladi. Milliy-ozodlik kurashining ikkinchi bosqichida, ya'ni mehnatkashlar manfaatlarini ko'zlanib, islohotlar o'tkazilgan davrda milliy burjuaziya revolyutsion kurashidan amalda chekinibgina qolmay, kontrrevolyutsion kuchga aylandi. Oqibatda milliy-ozodlik kurashi saflarida ajralish sodir bo'ldi. Bu holat qit'adagi turli mamlakatlarning turlicha yo'ldan rivojlana borishiga ham ta'sir ko'rsatdi.

1963-yil mayda Addis-Abebada (Efiopiya) qit'adagi 31 mamlakat davlat, hukumat boshliqlari va tashqi ishlar ministrLARining konferensiyasi ochildi. Konferensiya ishlarida hali mustamlaka iskanjasida bo'lgan mamlakatlarda ham 20 dan ortiq yirik siyosiy partiya va revolyutsion tashkilot delegatsiyalari ishtirok etdi. Konferensiyada mustamlakachilik va irqchilikka qarshi birgalikda kurash olib borish to'g'risida bir qator muhim siyosiy rezolyutsiyalar qabul qilindi jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkilotida hamkorlikda harakat qilish to'g'risida kelishib oldilar. Konferensiya Afrika Birligi Tashkiloti (ABT) ni tuzdi va uning programma hujjati–Xartiyasini qabul qildi. Xartiya mustamlakachi davlatlardan mustamlakalarga darhol mustaqillik berishni, qit'ada mustamlakachilikning har qanday ko'rinishlariga barham berishni tadab etdi.

Afrika Birligi Tashkiloti tashkil etilgan kun–25 may Afrika ozodligi kuni sifatida nishonlanadigan bo'ldi. Tashkilot qit'a xalqlarining ozodlik kurashida muhim rol o'ynadi. Hozirgi kunda unga qit'adagi 52 mamlakat uyushgan.

2. SHIMOLIY AFRIKA MAMLAKATLARINING MILLIY OZODLIK HARAKATLARI

2.1. Misrda milliy ozodlik harakati.

Misr xalqi 70-yildan ortiq ingliz imperialistlarining mustamlakachilik asoratiga qarshi kurash olib bordi. XIX asrning birinchi yarmida ingliz mustamlakachilari turklarni Misrdan siqib chiqarib, mamlakatni egallay boshladilar. Ingliz mustamlakachilarni, avvalo, Misrning arzon paxtasi qiziqtirgan keyin 1869-yili ochilgan Suvaysh kanali mamlakatni tamom bosib olishga undardi. Angliya Misr xo‘jaligining boshqa soxalari rivojiga g‘ov solib, uni o‘z paxta bazasiga aylantirdi, 1882-yili go‘yo “evropalik grajdanlar o‘ldirilganligi “ baxonasi bilan mamlakatni bosib olib, uning ustidan protektorat o‘rnatdi.

Sobiq sovet davlatidagi Oktyabr davlat to‘ntarishi misr xalqi milliy-ozodlik kurashi rivojida yangi bosqichni boshlab berdi. Mamlakatda dastlabki

sotsialistik gruppalar paydo bo'ldi va ular zaminida kommunistik harakat rivojlandi, proletariatning sinfiy ongi o'sib bordi.

1919-yil martda Misrda ingliz mustamlakachilariga qarshi xalq qo'zg'oloni ko'tarildi. Qo'zg'olon arafasida Qohirada ingliz hukmronligiga qarshi namoyishlar bo'lib o'tdi. O'shanda Qohira oliy o'quv yurtlari talabalarining namoyishi qatnashchilaridan bir guruhi qamoqqa olindi. Shundan keyin Misr dehqonlari (fallaxlar) ham kurashga qo'zg'aldilar. 14–15 martga kelib, qo'zg'olon mamlakatning katta qismiga yoyilgan edi. Ingliz ma'murlari qo'zg'olonchilar va namoyishchilarni o'qqa tutishni buyurdi. Qo'zg'olonchilar bunga javoban kazarmalarni va harbiy omborlarni tor-mor etdilar. Temir yo'l liniyalariga, ko'priklarga, ingliz soldat va ofitserlariga qarshi hujum boshladilar. Dehqonlar pomeschchik mulklarini sindirdilar, pomeschchiklarni o'ldirdilar. Qo'zg'olon to'la mustaqillik uchun kurash, ingliz protektoratini tugatish, ajinabiy qo'shinlarni mamlakatdan olib chiqib ketish shiorlari ostida o'tdi. Keng umummillat tusini olgan bu qo'zg'olonga rasmiy jihatdan milliy burjuaziya boshchilik qildi. Lekin qo'zg'olonning harakatlantiruvchi kuchi keng xalq ommasi edi. Misr ozodlik harakati tarixida birinchi marta ishchi va dehqonlar katta rol o'ynadilar. Ishchilar ish tashlash va miting hamda namoyishlar o'tkazishda, ko'cha janglari olib borishda alohida tashabbus ko'rsatdilar. Qo'zg'olon zaminida ommaviy kasaba soyuz tashkilotlari bunyodga keldi.

Xalq kurashidan cho'chigan Misr komprador burjuaziyasi xoinligi tufayli qo'zg'olon bostirildi. Qo'zg'olonga boshchilik qilgan milliy burjuaziya zarur paytda izchillik ko'rsata olmadi. Misr ishchilari va dehqonlari harakati qo'zg'olon bostirilganidan keyin ham zo'r kuch bilan davom etdi.

Mamlakatda yana revolyutsion vaziyat vujudga keldi. Misr ishchilar sinfi tashkiliy va hissiy jihatdan birmuncha o'sgan, ishchi tashkilotlarida kommunistik gruppalarining mavqeyi oshgan edi. Shunday vaziyatda 1920-yil oxirida Sotsialistik partiya nomi bilan proletar partiyasi tashkil topdi. Bu partiya 1922-yili Kominteriga kirdi va Kommunistik partiya nomini oldi. Misr mehnatkashlarining

mustamlakachilik va sinfiy zulmga qarshi kurashdagi avangard kuchi kommunistik partiyaning tashkil topishi Oktabrning inqilobining bevosita samarasi bo'ldi.

1921-yil oxiri va 1922-yil boshida Misrda xalq qo'zg'oloni ko'tarildi. Qo'zg'olonga milliy burjuaziya rahbarlarining qamoqqa olinishi bahona bo'ldi. Mamlakatning hamma yirik shaharlarida umumiy ish tashlash harakatlari boshlandi, dehqonlar" pomeshchiklar mulklarini talab, yondirdilar. Qo'zg'olon ingliz mustamlakachilar tomonidan rahimsizlik bilan bostirildi. Mamlakatda o'z pozitsiyalarini saqlab qolish maqsadida inglizlar 1922-yili Misrning "Mustaqilligi haqida deklaratsiya" qabul etib, 1923-yilda Misr uchun "konstitutsiya" e'lon qildilar. Angliya bu bilan milliy burjuaziyani "rozi" qilib, ishchilarga qarshi kurashni kuchaytirdi¹¹.

Misr xalqining imperialistlarga qarshi ozodlik kurashi keyingi-yillarda ham davom etaverdi.

Ingliz mustamlakachilari 1936-yili Misr podsho "hukumati" ni asoratli shartnomani imzolashga majbur etdilar. Bu shartnoma Misrning rasmiy e'lon qilingan, lekin chindan amalga oshmagan mustaqilligini ham oyoq osti qiluvchi bir hujjat edi. Shartnomaga ko'ra,"Misr territoriyasini himoya qilish uchun" ingliz qo'shinlari mamlakatda saqlab qolindi. Angliya Misrdagi yo'llardan, aloqa vositalaridan, portlar va aerodromlardan xarbiy maqsadlarda foydalanish huquqiga ega bo'ldi, Suvaysh kanali zonasini Yaqin Sharqdan eng yirik harbiy bazalaridan biriga aylantirdi. Shartnoma ingliz imperialistlarining mamlakatdagi mavqeyini mustahkamladi va Misrni yarim mustamlakaga aylantirib qo'ydi.

Ingliz-amerika imperialistlari Yaqin va o'rta Sharq mamlakatlarida milliy ozodlik harakati o'sgan bir paytda Isroil davlati bilan arab mamlakatlari o'rtasida urush mojarolari keltirib chiqardilar. Maqsad arab xalqlarining milliy ozodlik kurashiga zarba berish edi. Falastin urushi misr xalqi ozodlik kurashini susaytirmadi, balki uni alangalantirib yubordi. Bu urush imperializm malayi bo'lib

¹¹ Нуриддинов З.Р. Осиё ва Африка мамлакатларининг энг янги тарихи –Т.: Ўқитувчи, 1982.-Б,204-205

qolgan Misr podshosi Forux boshchiligidagi guruxlarning xalqqa qarshi xiyonatini, sotkin siyosatini baralla fosh etib tashladi.

1951-yil avgustda Qohira ishchilari, studentlari va ziyolilari poytaxt ko'chalariga "Bitsin imperializm" "Yashasin ozod Misr!" kabi jangovar ishoralar bilan chiqdilar.

Imperializmga qarshi harakat shaharlardan qishloqlarga tarqaldi. 1951-yil oktyabrda Misr parlamenti Angliya Misr shartnomasini va Sudan haqidagi konvensiyani bekor qilishga qaror qildi. Xalq hukumat va parlamentni qo'llab-quvvatladi. 13-oktabrda Iskandariyada 200 ming kishi, 14 noyabrda qoxirada 1 million kishi antiimperialistik namoyishlarda qatnashdi¹².

Angliya mustamlakachi ma'murlari bunga javoban Misrga katta qo'shin qismlari, ko'plab samolyotlar, tanklar keltirdilar. Angliya harbiy kemalari Misr qirg'oqlariga keltirildi. Suvayish kanali zonasidagi barcha shaharlar egallandi, mamlakatning va kanal zonasidagi aloqa vositalari qo'lga olindi. Xalqqa qarshi chinakam harbiy harakatlar boshlandi. Xalqning tinch namoyishlari o'qqa tutildi.

1952-yil iyulda inglizlar ta'siridagi feodal-monarxik hukumatga qarshi milliy armiya kurashga otlandi. Natijada Misr podshosi Forux taxtdan voz kechdi, hokimiyat Jamol Abdil Nosir boshchilidagi harbiy ofitserlardan tashkil topgan Revolyutsionlar qo'liga o'tdi. 1953-yil 18 iyunda Misr Respublika deb e'lon qilindi. 1956-yilgi referendum tufayli Misr Respublikasining Yangi konstitutsiyasi ma'qullandi, Jamol Abdil Nosir Misr respublikasi prezidenti bo'ldi.

Misr iqtisodiga mustamlaka rejimidan meros bo'lib qolgan qoloqlikni tugatish, sanoat va qishloq xo'jaligini rivojlantirish, madaniyatni ko'tarishga qaratilgan bir qator tadbirlar amalga oshirildi.

Mamlakatda o'tkazilgan yer islohoti muhim tadbirlardan biri bo'ldi. Pomeshchiklar qo'lidagi 200 feddandan (1 feddan=0,42 gektar) ortiq yerlar davlat tomonidan sotib olinib, yersiz va kam yerli dehqonlarga taqsimlab beriladigan

¹² Родригес А.М. Новейшая История стран Азии и Африки XX века. –Москва: 2005.-С 150.

bo'ldi.

Misr hukumati Sobiq Ittifoq va boshqa sotsialistik mamlakatlar bilan bir qator savdo bitimlari imzoladi. Teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik asosida tuzilgan bu bitimlar Misr respublikasiga og'ir iqtisodiy ahvoldan qutulish va milliy mustaqilligini saqlab qolishida katta yordam berdi.

1956-yil 26 iyunda Suvaysh kanalining natsionalizatsiya qilinishi misr xalqi va butun arab Sharqi xalqlari hayotida muhim voqea bo'ldi. Bu bilan Misrning chet el kompaniyalari tomonidan talanishiga xotima berildi¹³.

Angliya, Fransiya va AQSh Misrga nisbatan bo'hton va iqtisodiy blokada kampaniyasini boshladilar. Lekin imperialistlarning bu urinishlari bekor ketdi. Shundan keyin Angliya, Fransiya va Isroil 1956-yil sentabrda Misrga ochiq agressiya qildilar. Xalq o'z mustaqilligini saqlab qolish uchun kurashga otlandi. Misr qurolli kuchlariga yordam berish uchun Milliy ozodlik armiyasi tashkil etildi. Bunga ishchilar, fallaxlar (dehqonlar), tudentlar, xizmatchilar va milliy burjuaziya vakillari ko'ngilli bo'lib kirdilar. Jahon xalqlari imperialistlar agressiyasiga qarshi chiqdilar.

Misr xalqining qat'iy kurashi va ayniqsa sotsialistik mamlakatlarning himoyasi tufayli Misrga qarshi uyushtirilgan impernalistik agressiya barbod bo'ldi.

Misr milliy-ozodlik revolyutsiyasi o'z taraqqiyotida ikki bosqichni bosib o'tdi. Misr revolyutsiyasining birnnchi bosqichi 1952–1961-yil o'rtalarini o'z ichiga oladi. Revolyutsiyaning bu bosqichi antiimperialistik antifeodal bosqichidir. Bu davrda agrar reforma o'tkazildi, monarxiya va eski konstitutsiya tugatildi. Respublikaning yangi konstitutsiyasi (1956-yil) qabul qilindi. Bu tadbirlar keskin sinfiy kurash vaziyatida o'tdi. Misr revolyutskyasi tashqi siyosatda ham antiimperialistik yo'l tutdi.

1961-yil iyuldan boshlab Misr revolyutsiyasining antikapitalistik ikkinchi bosqichi boshlandi. Hukumat mamlakatdagi 149 ta bank va stroxavanie

¹³ Нуриддинов З.Р. Осиё ва Африка мамлакатларининг энг янги тарихи –Т.: Ўқитувчи, 1982.-Б,206

jamiyatlarini, yirik kompaniya va monopoliyalarni natsionalizatsiya qildi. Shu asosda mamlakatda davlat sektori birmuncha mustahkamlandi. 91 kompaniya mulklarining yarmi, milliylashtirildi. 159 yirik kompaniya va firmalarda xususiy kishilarga 10 ming misr funtidan oshiq aksiyaga ega bo'lish taqiqlandi. Bundan tashqari ishchilarning korxona va kompaniya foydasini taqsimlashdagi ishtiroki to'g'risida, ishchi va Xizmatchilarning korxona va kompaniyalarni boshkaruvchi ma'muriy kengashlarda ishtiroki haqida qonunlar qabul qilindi.

O'sha-yil iyulda agrar reformani davom ettirish haqida prezident dekreti elon qilindi. Sanoat korxokalarida (davlat va O'xususiy korxonalarida) 7 soatlik ish kuni joriy etildi.

Nosir hukumati mehnatkashlar ahvolini yaxshilash uchun qator tadbirlar ko'rdi. 1961–1962-yillarda avval davlat xonalarida, keyin xususiy korxonalarida ishlovchi ishchilar uchun qat'iy maosh belgilandi va hokazo.

Misr revolyutsiyasining birinchi bosqichida milliy burjuaznyaning manfatlari himoya qilingan bo'lsa, ikkinchi bosqichida asosan mehnatkashlar manfaati himoya qilindi. Shu bilan birga, revolyutsiyaning ikkinchi bosqichi o'ziga xos qarama-qarshiliklarga ham ega bo'ldi. 50-yillar oxiri va 60-yillar boshida mamlakatda antikommunistik kampaniya boshlanib, ko'plab kommunistik ruhdagi kishilar ta'qib etildi.

1964-yil martda Birlashgan Arab Respublikasining yangi konstitutsiyasi qabul qilindi. Bu konstitutsiyaga ko'ra, barcha natsionalizatsiya qilingan korxonalar umumxalq mulki deb, shuningdek, xususiy va kooperativ mulk mavjudligi e'lon qilindi.

Sobiq Ittifoq va boshqa sotsialistik mamlakatlar yordami bilan Misrda sanoatning ancha baquvvat davlat sektori tashkil topdi. Sobiq Ittifoq yordami bilan Afrikadagi eng yirik gidroenergetika kompleksi—Asvop to'g'oni, Xeluan metallurgiya kombinati, Nag-Xammadi alyuminiy zavodi va boshqa sanoat ob'ektlari vujudga keldi, minglab sanoat kadrlari tayyorlandi. Agrar reformalardan keyin yirik pomeschchik yer egaligi tugatilib, qishloq xo'jaligida kooperatsiya

harakati boshlandi.

1967-yil iyunda Isroil imperializmi AQShning qo'llab-quvvatlashi bilan Misr va boshqa arab davlatlariga qarshi agressiya boshladi va bir haftalik urush jarayonida Sinay yarim orolining Suvaysh kanaligacha bo'lgan yerlarini bosib oldi¹⁴. Sobiq Ittifoq va boshqa xalqaro tinchliksevar kuchlar taziqi ostida Isroil agressiyani to'xtatishga majbur bo'ldi. 1973-yil oktabrda arab mamlakatlari bilan Isroil o'rtasida yana urush kelib chiqdi. Bu ush jarayonida Sobiq Ittifoq va boshqa sotsialistik mamlakatlar ko'rsatgan harbiy-iqtisodiy yordam tufayli arab mamlakatlari, jumladan, Misr armiyasi Suvaysh kanalidan o'tdi va Sinay yarim orolini ozod qila boshladi. Natijada Isroil yarash bitimi so'rashga majbur bo'ldi. Yaqin Sharq muammosini hal etish uchun

Jenevada 1973-yil 21 dekabrda xalqaro konferensiya chaqirish imkoniyati yaratildi. Biroq, AQSh va Isroil Jeneva konferensiyasi ishini barbod qildilar.

70-yillar boshidan (J. Nosir vafotidap keyin) Misr arab Respublikasi tashqi va ichki siyosatida jiddiy o'zgarishlar yuz bera boshladi. Mamlakatning prezident Sadat boshliq rahbarlari xususiy va chet el kapitalini rag'batlantirish yo'lidan borib, Misr bozorida "ochiq eshiklar" siyosatini yurita boshladilar. Misrda natsionalizatsiya qilingan sanoat korxonalari va banklar xususiy kapital qo'lga topshirildi. Natijada Misr iqtisodiy chuqur krizisni boshidan kechira boshladi.

Misr tashqi siyosatida ham katta salbiy o'zgarishlar yuz berdi. Prezident Sadat AQSh imperializmiga yaqinlashish yo'lidan borib, 1976-yil martda 1971-yilgi misr-sovet shartnomasini bekor etilganligini e'lon qildi. Sadat Yaqin Sharq muammosini hal etishda arab mamlakatlariga xiyonat qilib, separat sulh yo'lidan bordi va nihoyat 1978-yil sentyabrda Kemp-Devid (Vashington yaqinidagi prezident qarorgohi) sulh shartnomasini imzoladi. Kemp-Devid shartnomasiga ko'ra, Misr birnecha-yillar davomida, bosqichma-bosqich Sinay yarim orolini qaytarib oladigan bo'ldi.

¹⁴ Хидоятов Г.А. Всемирная История (1945-1999 гг) –Тошкент.: 2000.-С,230

Prezident Nosir 1953-yili tashkil qilgan Arab Sotsialistik Ittifoqi partiyasi 1976-yili amalda tarqatib yuborildi. Uning o'rniga Sadat rejimini qo'llab-quvvatlaydigan Milliy-demokratik partiya va boshqa tashkilotlar tuzildi. Sadat rejimi armiyaga, komprador burjuaziya va pomeschchiklarga tayangan xolda saqlab turdi.

2.2 Jazoirdagi milliy ozodlik harakatlari

XIX asr o'rtalaridan Jazoir fransuz mustamlakasi edi. U iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotda Fransiyadagi siyosiy hayotni radikallashtirish jarayonlari bilan yaqindan bog'liq bo'lib, bu hol mustaqillik uchun kurashishga burilishni oldindan belgilab berdi. 1954-yilning aprelida Jazoirda birlik va harakatlar inqilobiy qo'mitasi tuzildi, keyinchalik u Milliy Ozodlik Frontiga (MOF) aylantirildi¹⁵. Uning chaqirig'i bilan 1954-yilning 1-noyabrida Jazoirning janubi-sharqida umummilliy inqilobga o'sib o'tgan qurolli qo'zg'olon boshlandi. MOF dasturi Jazoir mustaqilligi uchun kurash, demokratik respublika tuzish, agrar islohotni amalga oshirish, ishlab chiqarish asosiy vositalarini natsionalizatsiya qilishni ko'zda tutdi. 1958-yilda MOF negizida Jazoir respublikasi muvaqqat hukumati tuzildi. Fransuz mustamlaka hukumati aljirlik vatanparvarlarga qarshi ulkan qo'shin va qatag'on apparatini ishga soldi. Mustaqillik uchun kurashda 1 million aljirlik halok bo'ldi (9 million aholidan) va 2 millionga yaqin kishilar qamoqxonalarga tashlandi. Jahon jamoatchiligi fransuz hukumatining xatti-harakatlarini qoraladi. Dunyoning ko'plab mamlakatlari Aljir respublikasi Vaqtli hukumatini tan oldi.

Evian bitimlari. AXDR e'lon qilinishi. 1962-yilning 18-martida Evian shahrida jazoir-fransuz munosabatlarini belgilab beruvchi bitimlar imzolandi. Jazoir mustaqil deb e'lon qilindi va Jazoir Xalq Demokratik Respublikasi deb nomlandi. MOF yo'lboshchisi Ahmad bin Bella hukumatga boshchilik qildi. Evian

¹⁵ Хидоятов Г.А. Всемирная История (1945-1999 гг) –Тошкент.: 2000.-С 245

bitimlaridan keyin ayrim yevropalik mustamlakachilar mamlakatni tark etdi, boshqalari esa hukumatga ochiqchasiga qarshilik ko'rsatish yo'lga o'tdi. Bunga javoban respublika rahbariyati joylarda korxonalar ishlarini yo'lga qo'yish uchun o'z-o'zini boshqarish qo'mitalarini tashkil etdi. Tez orada Bin Bella hukumati mulkdorlar tashlab ketgan sanoat korxonalari va yerlarni natsionalizatsiya qilish haqida dekret chiqardi. 1963-yilning oktabrida fransuz mustamlakachilariga tegishli bo'lgan barcha yerlar o'z-o'zini boshqarish qo'mitalariga berilishi, yerlarni dehqonlar o'rtasida taqsimlanishi ko'zda tutilgan yangi dekretlar qabul qilindi. MOF boshqaruvi 1965-yilda MOF rahbariyatida Bin Bella boshchiligidagi mo'tadil siyosiy yo'l va mudofaa vaziri polkovnik Xuari Bumeden (1925-1978) boshchiligidagi keskin totalitar yo'l tarafdorlari o'rtasida bo'linish yuz berdi. 1965-yilning 19-iyunida to'ntarish natijasida Bin Bella MOF yo'l boshchisi va prezidentlik lavozimlaridan olib tashlandi, X. Bumeden esa o'zini Inqilobiy Kengash prezidenti deb e'lon qildi¹⁶.

Bin Bella Ahmad Muhammad (1916-yilda tug'ilgan)-MOF yo'l boshchisi, Jazoir respublikasi prezidenti (1962- 1965). Harbiy to'ntarish natijasida ag'darilgan. 1979-yilda Fransiyaqa chiqarib yuborilgan. 1990-yilda Jazoirga qaytgan va siyosiy faoliyatini tiklagan, Demokratik Jazoir uchun harakatini tashkil etgan. X. Bumeden 1976-yilgacha Jazoirda hukmronlik qildi, shu yili prezident etib saylandi. U xuddi Liviyadagi kabi zohidona islom sotsializmi tarafdori edi. Uning vafotidan so'ng 1978-yilda MOF raisi Benjedid Shadli uning o'rnini egalladi va X. Bumeden tuzumining keskin xususiyatini yumshatishga intildi. U Fransiya bilan yaqin aloqalar o'rnatdi, 1981-yilda esa Tehrondagi amerikalik garovga olinganlarni ozod etishda vositachilik qildi. 1984-yilda B. Shadli yana mamlakat prezidenti etib saylandi, biroq MOFning ahvoliga putur yetdi. Neftga nisbatan jahon narxlarining pasayishi ommaviy bo'lmagan choralarni ko'rishga majbur etdi, bu hol esa aholi turmush darajasining pasayishiga olib

¹⁶ Хидоятлов Г.А. Всемирная История (1945-1999 гг) –Тошкент.: 2000.-С,305

keldi. Mamlakatning ikki asosiy shahri-Jazoir va Oranda 1988-yilning oktabrida islom fundamentalistlarining isyoni yuzaga keldi. Bu kunlarda 150 dan ziyod kishi halok bo'ldi. Faqat B.Shadlining ijtimoiy va siyosiy islohotlarni o'tkazishga bo'lgan va'dasigina hukumatga qarshi harakatning kuchayib ketishini to'xtatdi.

1989-yilda prezidentlik hokimiyatini kuchaytiruvchi yangi konstitutsiya qabul qilindi. MOF hukumatga monopoliyadan voz kechdi. Muxolifatdagi partiyalar va islom fundamentalistlarining faoliyatiga yo'l ochildi. 1989-yilda tuzilgan Islom milliy qutqarish fronti mahalliy hokimiyat organlariga saylovlarda g'alaba qozondi. U va MOF o'rtasida qarama-qarshilik davri boshlandi. 1991-yilning noyabrida Jazoirda umumxalq parlament saylovlari bo'lib o'tib, unda yana islom fundamentalistlari g'alaba qozondi. Qo'shin saylov natijalarini tan olishdan bosh tortdi. Bunga norozilik belgisi sifatida B.Shadli iste'foga chiqdi. Uning o'rnini Muhammad Budlar egalladi, biroq 1992-yilning 1-iyunida u islom fundamentalistlari tomonidan o'ldirildi, 2-iyunda esa qo'shin Ali Karini prezident deb e'lon qildi. Bu Jazoirda butun 90-yillar mobaynida davom etgan fuqarolar urishining boshlanishi edi. 1999-yil aprelda qo'shin yordamida hokimiyatga Abdulaziz Buteflika keldi. Biroq, mamlakatda tinchlik va barqarorlikka erishilmadi. Qo'shin rahbariyati davlatni boshqarishda o'z vakolatlarini kengaytirishni talab qildi. Buteflika qotillik va terrorizmga aralashmagan islom jangarilariga amnistiya e'lon qildi. Shu yo'l bilan milliy kelishuvga umid qildi. 2001-yilda terroristik hurujlarning yangi to'liqini boshlandi. Kabiliya viloyatida yashovchi berber qabilalari ham hukumatga qarshi kurashga kirdi. Aljirda fuqarolik urushi davom etmoqda. Uning rahbarlari mamlakatda xalqaro vositachilar kirishini istamaydi.

2.3 Liviyadagi milliy ozodlik harakatlari

Birinchi jahon urushi arafasida Liviya Italiya tomonidan bosib olindi. Ikkinchi jahon urushidan so'ng mamlakatni ingliz va fransuz mustamlakachilari boshqardi. 1951-yilda hokimiyatni qonuniylashtirish uchun mustamlakachilar eng

qadimgi musulmon mazhabi-sanusitlar vakilini Idris I nomi bilan Liviya qiroli deb e'lon qildi, u mustamlakachilarning ashaddiy tarafdoriga aylandi. 1953-yilda u Angliyaga Liviya hududida harbiy bazalarni joylashtirish huquqini berdi, 1954-yilda esa bunday bitim AQSH bilan ham imzolandi. Liviya ingliz-amerika harbiy platsdarmiga aylandi, u Afrikada mustamlakachilik saqlanishining kafolati bo'lishi lozim edi.

IdrisI ning g'arbparastlik siyosati norozilik uyg'otdi va 1969-yilning 1-sentabrida Muammar Kaddafiy boshchiligidagi zobitlar guruhi harbiy to'ntarish qildi va monarxiya tuzumini ag'dardi¹⁷. Mamlakat Liviya Arab Respublikasi deb nomlandi. Yangi respublika rahbariyati suverenitetga erishish va ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni amalga oshirishda kafilligini bayon etdi. 1970-yilning martida Angliya o'z harbiy bazalarini ko'chirishga majbur bo'ldi, iyunda esa AQSH ham shunday yo'l tutdi.

Hokimiyatning oliy organi Umumiy xalq kongressi (UXK) e'lon qilindi. M.Kaddafiy unga boshchilik qildi. Respublika Xalq Liviya Arab Jamoxiriyasi (xalq hokimiyati) deb nomlandi. M.Kaddafiy "1-sentabr inqilobi yo'lboshchisi" deb e'lon qilindi va Liviya respublikasining yakkashaxs boshlig'i bo'ldi.

Kaddafiy Muammar (1942-yilda tug'ilgan)-1969-yilning 1-sentabridan 1977-yilning martigacha-Inqilobiy qo'mondonlik kengashi raisi, 1970-1972-yillarda-bosh vazir, 1977-yildan-Liviyada Arab Jamoxiriyasi boshlig'i. 50-yillar ikkinchi yarmida Liviyada yirik neft konlari ochildi, neft qazib chiqarish iqtisodiyotning asosiga aylandi va mamlakat milliy daromadining tezkor oshishiga imkon yaratdi. Liviyada neft qazib chiqarish ruxsatiga ega barcha xorijiy kompaniyalar to'liq yoki qisman (51 foizga) natsionalizatsiya qilindi. Davlat mamlakatda neft mahsulotlarini sotish va taqsimlashni o'z qo'liga oldi. Shuningdek, milliy neft-kimyo sanoati va neftni olib chiqib ketish uchun o'z tanker floti tashkil etildi. Respublika rahbariyati aralash tipdagi iqtisodiyotni shakllantirdi.

¹⁷ Родригес А.М. Стран Азии и Африки в новейшее время в вопросах и ответах. –Москва: 2008.-С,210

Unda qudratli davlat sektori barpo etildi, bunga neft, neft-kimyo sanoatidan tashqari banklar, sug`urta kompaniyalari va yirik davlat qishloq xo`jalik birlashmalari, transport, tashqi savdo qurilish kompaniyalari kirdi. 1978-yilning sentabrida sanoat va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlaridagi korxonalar, ularda band bo`lgan ishchi va xizmatchilar qo`liga o`tdi. Ular o`z korxonalarini saylanadigan xalq qo`mitalari orqali boshqarishga kirishdi. Mamlakatda kooperativ harakat va individual tadbirkorlikni rivojlantirish rag`batlantirildi, odamlarni ekspluatatsiya qilish xususiyatiga ega bo`lmagan istalgan xo`jalik faoliyatiga ruxsat berildi. Tadbirkorlar suiiste'molchiliklarini cheklash uchun Respublika hukumati majburiy eng kam oylikni oshirdi, kvartira haqini kamaytirdi, tibbiy xizmat, maktab va universitetlarda o`qitish bepul bo`ldi. Ilg`or daromad solig`i kiritildi. Imkoniyat jihatidan dunyodagi eng boy mamlakatlardan biridir. Har-yili mamlakatda 110 million tonna neft qazib olinadi. Germaniya, Fransiya va Italiyaga eksport qilinadi. Neft sotishdan tushgan tushum 10 milliard dollarga yaqin mablag`ni tashkil etadi.

Liviya rahbariyati asosida arab millatchiligi va islom bo`lgan islom sotsializmi deb nomlangan o`z mafkurasini ishlab chiqdi. Liviyada shariat huquqlari hukmron va musulmon qonunlari bajarilishi ustidan qat'iy kuzatiladi. Liviya rahbariyati boshqaruvning respublika shakllari va parlament demokratiyasini rad etadi. Ko`zbo`yamachilik, umumxalq saylovlari esa maynavozchilik sifatida baholanadi. Buning o`rniga urug`chilik-qabilaviy demokratiya va xalq hokimiyati olg`a suriladi. Iqtisodiy tizimning tagzimini teng taqsimotga asoslangan sotsializmdir. Uning mohiyati ishlab chiqarilgan mahsulotni taqsimlash ustida boradi har bir kishi bir xil ulushni olishi kerak, iste'mol qilishda o`z-o`zini cheklashga erishishi lozim. Liviya jamoxiriyasining iqtisodiy konsepsiyasi oylik ish haqini man etish, natural almashinuvga qaytishni ko`zda tutadi. Foyda olish iqtisodiyotni rag`batlantiradi, biroq u haddan ortiq shaxsiy ehtiyojlarni qondirishga emas, balki butun jamiyat ehtiyojlari yo`lida foydalanihshi lozim. Sekin-asta mehnat barcha jamiyat a'zolari ehtiyojlarini qondirish yo`lida

foydani tugatishga olib kelishi lozim. Bu ko'p jihatdan xomxayol va konservativ dastur na ijtimoiy, na iqtisodiy muammolarini hal eta olmas edi. U milliy tadbirkorlar tashabbuslarini to'xtatib qolib, Liviyaning ulkan potensial imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishni qiyinlashtirdi. 1987-yil noyabr kooperativchilik harakatining rivojlanishi, aholi ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarining kengayishi (bepul ta'lim va tibbiy xizmat ko'rsatish) Ideologiya-islom sotsializmi shariat hukmronligi.

1986-yilning 15-aprelida Amerika bombardimonchilari M.Kaddafiyning Tripolidagi qarorgohiga bomba zarbalarini berdi¹⁸. U mo'jiza tufayli o'limdan omon qoldi. AQSH Liviya Isroilning asosiy dushmani sifatida tugatishni niyat qilgandi. Kaddafiy Y.Arofah boshchiligidagi FOTni qo'llab-quvvatlab keldi, unga jangchilar ta'minoti uchun yirik mablag'lar ajratdi, Tripolida FOT rezidensiyalaridan biri joylashgan. U Isroilning A.Sadat bilan bitimini keskin qoraladi. 1978-yilda Liviya-Misr chegarasida yuzaga kelgan murakkab ahvol ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarni to'liq uzishgacha borib yetdi. Liviya Arab davlatlari ligasi, neft eksportchilari tashkiloti (OPEK), Qo'shilmaslik harakati, 1989-yilning fevralidan-Arab Mag'ribi ittifoqi a'zosi. Shu bois u tashqi siyosatda xalqaro miqyosda qo'llab-quvvatlanishiga ishonadi. Ayni paytda bir qator yirik g'arb davlatlari Liviya neftining uzluksiz yetkazib berilishidan manfaatdor va bu ham mamlakat xavfsizligining kafolatidir. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi rivojlanmaganligi sababli neftdan keladigan dollarning ko'p qismi oziq-ovqat mahsulotlari sotib olishga ketadi. Qishloq xo'jaligida mamlakat aholisining 16 foizigina mashg'ul, xolos. Iste'mol buyumlari, transport, yengil avtomobillar, samolyot, qurol-aslahani Liviya sotib olishga majbur. Neftdan tushadigan katta pul miqdorining ancha qismi noishlab chiqarish xarajatlariga ketadi va shu bois ilmiy-texnika rivojlanishi hamda iqtisod o'sishi mexanizmini yaratmagan. 1988-yil 21-dekabrda Lokerbi nomli shotland qishlog'i ustida 259 yo'lovchisi bo'lgan Boing-

¹⁸ Родригес А.М. Стран Азии и Африки в новейшее время в вопросах и ответах. –Москва: 2008.-С,213

247 samolyoti portlatildi. Liviya razvedkasining ikki xodimiga shubha tushdi, biroq Kaddafiy ularni xalqaro sud qo`liga topshirishdan bosh tortdi. Liviya xalqaro yakkalanib qoldi. 1992-yilda BMT Liviyaga qarshi savdo sanksiyalari va aviatsiya aloqasiga taqiqlashlar kiritdi. Liviya iqtisodiyotida xaos boshlandi. Inflyatsiya qariyb 20% ga yetdi, aholining 30% esa ishsiz qoldi. Kaddafiy shubha qilinayotganlarni berishga majbur bo`ldi. Sanksiyalar olib tashlandi va Yevropa kapitali yana Liviyaga kirib keldi. Liviya aviaterroizm qurbonlari uchun kompensatsiya to`lashga rozi bo`ldi.

2.4 Tunisdagi milliy ozodlik harakatlari

Tunis 1956-yilda mustaqillikka erishdi. 1957-yil iyulda monarxiya o`rnatildi va Tunis respublika deb e`lon qilindi. Faqat 1963-yil oktabrda Fransiya o`z harbiy-dengiz bazasini Bizertidan ko`chirdi va Tunis to`liq suveren bo`lib oldi. Tunis g`arbparastlik qarashlarini yoqlovchi yagona arab mamlakati. 1969 va 1975-yillarda mamlakat hukumati bilan bitim tuzgan. Tunis, shuningdek, Arab davlatlari ligasi va 1989-yilda tashkil topgan Arab Mag`ribi Ittifoqi a`zosi sanaladi. Mustaqillikka erishgach, hokimiyatga mustamlaka davrida tashkil topgan Sotsialistik dastur (dastur arabchada-konstitutsiya) partiyasi (SDP) keldi. Uning vakili Xabib Burg`ib mustaqil Tunisning birinchi prezidenti etib saylandi. Mamlakat hukumatining ichki siyosati “sotsializmi dasturi” doktrinasini bo`lib qoldi. U iqtisodning davlat, kooperativ va xususiy sektorini birlashtirish hamda aholi barcha qatlamlarini birlashtiruvchi “sotsializm pakti” deb nom olgan doirada millat birligini mustahkamlashni ko`zda tutadi¹⁹.

Burg`ib Xabib ibn Ali (1903-1995)-Tunisning 1957-yildan 1987-yilgacha prezidenti. 1934-yildan Sotsialistik dastur partiyasini boshqargan. Mo`tadil sotsialistik islohotlar tarafdori. Sotsialistik dasturga muvofiq 1969-yilda ilgari fransuz mustamlakachilari va xususiy zamindorlariga tegishli davlat yerlari sotila boshlandi (xususiylashtirildi). Tunisda mustaqil respublika tayanchi-mayda va

¹⁹ Lafasof M. Jahon Tarixi. – T.: Turon Iqbol, 2010.-B.300.

o`rta yer egalari paydo bo`ldi. 60-yillar o`rtalarida Tunis hukumati hukumat sanoat korxonalarini natsionalizatsiya qildi, biroq shu bilan birga 1974-yilda milliy burjuaziya va chet el sarmoyadorlariga muhim imtiyozlar va kafolatlar berildi. Shunday bo`lsada, "ijtimoiy pakt" amalga oshmadi. Og`ir ijtimoiy muammolar xalq va hukumat qarama-qarshiligini keltirib chiqardi. Ayniqsa, 1970-yilda keskin iqtisodiy siyosat yurgizgan yirik moliyachi Xodi Nuira bosh vazir etib saylangach, mamlakat ichki siyosati o`ta keskinlashdi. 1978-yilning yanvarida kasaba uyushmalari yirik ish tashlashlar o`tkazdi va bu bostirildi. Bu yangi siyosiy kuchlarni keltirib chiqardi. 1981-yilda Islom oqimi harakati tashkil etildi va tez orada partiya (IOP) nomini oldi. 1980-yilning fevralida Xodi Nuira vafot etgach, yangi bosh vazir Muhammad Mazali (1924-yilda tug`ilgan) liberal islohotlar bilan ahvolni o`nglashga urindi, biroq bu yetarli naf bermadi. 1981-yilda SDP siyosiy plyuralizm tamoyilini e`lon qildi va noyabrda ko`ppartiyali demokratik saylovlar o`tkazildi. Hukumat ochiq kurashda g`alaba qozonsada, islom fundamentalistlari yana dinga qarshi ommaviy chiqishlarni boshlab yubordi. Harbiylar mamlakat siyosiy hayotini o`z nazorati ostiga olishga qaror qildi. M. Mazali bosh vazir lavozimidan ketishga majbur bo`ldi va uning o`rnini general Ben Ali (1926-yilda tug`ilgan) egalladi. 1987-yil 7-noyabrda u Burgibuni yengib, mamlakat prezidentligiga saylandi. Ben Ali xalqaro majburiyatlarga sodiqligini bildirdi va siyosiy plyuralizm asosida yo`nalish olib borish hamda demokratiyani mustahkamlashga va'da berdi. 1988-yildan boshlab Demokratik konstitutsiyaviy birlashuv deb atala boshlagan partiya prezident siyosatini qo`llab-quvvatladi. Shu-yili mamlakatning yangi konstitutsiyasi qabul qilindi, u demokratik tamoyillar asosida tuzilgan edi. Barcha siyosiy partiyalar rahbarlari mamlakat rivojlanishining asosiy yo`nalishlari bilan kelishuv to`g`risida Milliy pakti imzoladi. 1993-yilda barcha siyosiy partiyalar ishtirokida parlament saylovlari o`tkazildi. Biroq, hukumat rejasini amalga oshirish islom fundamental guruhlariga qarshiligi tufayli murakkablashmoqda. 1999-yil oktabrda prezidentlik saylovlarida Ben Ali g`alaba qildi. Siyosiy barqarorlik iqtisodiy ahvolni yaxshilashga imkon

yaratdi. Tunis chet el kapitali uchun e'tiborni tortadigan yurtga aylandi. U Germaniya,Fransiya, Italiya, Belgiya bilan yaqin iqtisodiy aloqalarni o`rnatdi.

2.5 Marokashdagi milliy ozodlik harakatlari

Marokash xalqi bosqinchi davlatlarning hukmronligiga qarshi umumiy qo'zg'olon ko'tardi. 1921-yil Rif qabilalari Abdulkarim rahbarligida Rif viloyatida ispanlar qo'lidan hokimiyatni tortib olib, mustaqil Rif Respublikasini tuzdilar. Ammo Ispaniya-Fransiyaning birlashgan kuchlari bilan bo'lgan shiddatli janglardan keyin Rif Respublikasi tor-mor qilindi (1926).Biroq Fransiya zonasidagi qabilalar mustamlakachilarga qarshi qattiq qarshilik ko'rsatishni davom ettirdilar. 2-jahon urushi-yillarida ozodlik harakati kuchayib ketdi.

50-yillarning boshida esa norozilik harakatiga keng xalq ommasi qo'shildi. Fransiya protektorati hokimlari milliy ozodlik harakati qatnashchilarini quvg'in ostiga oldi. 1952-yil 8 dekabrda Kasablankada ommaviy namoyish qatnashchilaridan yuzlab kishilar o'ldirildi, minglarcha kishi qamoqqa olindi. 1954 va 1955-yillarda Marokashda yana ish tashlashlar va namoyishlar bo'lib o'tdi. Dunyodagi boshqa ilg'or kuchlar Marokash xalqining milliy ozodlik harakatini qo'llabquvvatladi²⁰.

Fransiya protektorati Marokashda milliy hukumat tuzish uchun rozilik berishga (1955-yil 7 dekabr.) va uning milliy mustaqilligini tan olishga majbur bo'ldi (1957-yil 2 mart) 1956-yil 7 aprelda Ispaniya protektorati ham bekor qilindi, 1957 yi1 yanvarda Tanjer Marokash tarkibiga qo'shildi. 1962-yil dekabrda Marokashning birinchi konstitutsiyasi qabul etildi, 1963-yil mayda parlament saylovi bo'lib o'tdi. Xalq ommasi ahvolining yomonlashuvi,ishsizlar sonining ko'payishi oqibatida mamlakat ichkarisida ahvol keskinlashib ketdi. Natijada hukumat a'zolari tez-tez almashinib turdi."Istiqlol" partiyasi parokandalikka uchradi. Partiya ichida bo'linish ro'y berdi uning so'l qismi Xalq kuchlari milliy ittifoqi partiyasi nomi bilan ajralib chiqdi (1959).1964–65-yillarda yirik shaharlarda

²⁰ Lafasof M. Jahon Tarixi. – T.: Turon Iqbol, 2010.-B.299.

iqtisodiy ahvolning yaxshilanishi, tub iqtisodiy-ijtimoiy o'zgarishlar o'tkazilishi shiorlari ostida ish tashlashlar va ommaviy mitinglar bo'lib o'tdi. Lekin bu harakatlar qurol kuchi yordamida bostirildi. 1965-yil 7 iyunda Marokashda favqulodda holat e'lon qilindi, podshoh hukumat iste'fosini qabul qildi, parlamentni tarqatib yubordi va qonun chiqaruvchi hamda ijro etuvchi butun hokimiyatni o'z qo'liga oldi.

1970-yil iyulda favqulodda holat bekor qilindi. 21 va 28 avgustda parlament saylovi bo'lib o'tdi. 1972-yil 1 martda referendum bo'lib, yangi konstitutsiya qabul qilindi, parlament va hukumatning huquqlari bir oz kengaytirildi²¹.

Podshoh Hasan II iqtisodiy va siyosiy islohotlar zarurligini anglab, 1973-yilda bir qancha iqtisodiy tadbirlar o'tkazilishini e'lon qildi. Xalqaro maydonda betaraflik siyosatini o'tkaza boshladi. Konstitutsiyaga 1992-yilda kiritilgan o'zgartirishlarga binoan, parlamentning hukumat faoliyati ustidan nazorati kuchaytirildi, Marokashning inson huquqlariga sodiqligi mustahkamlandi. Marokash 1956-yildan BMT a'zosi. O'zR bilan diplomatiya munosabatlarini 1993-yil 11 oktyabrda o'rnatgan. Milliy bayrami—30 iyul

²¹ Хидоятлов Г.А. Всемирная История (1945-1999 гг) —Тошкент.: 2000.-С.320

3. MARKAZIY AFRIKA MAMLAKATLARINING MILLIY OZODLIK HARAKATLARI

3.1 Kongo (Zair)dagi milliy ozodlik harakatlari

Kongo 1908-yildan Belgiya mustamlakasiga aylandi va o`ttiz-yil davomida Belgiya qiroli Leopoldning shaxsiy mulki bo`lib qoldi. Mamlakat mis va fil suyagiga boy edi va Yevropa mustamlakachilari bu boyliklarga erishish uchun kam mehnat sarflab, ayovsiz ekspluatatsiya qilishga harakat qilar edi. Yarim asr davomida (1908-1958-yil) Kongo aholisi 30 million kishidan 15 milliongacha qisqarib ketdi. Uning xalqi bir necha bor mustamlakachilarga qarshi chiqdi, biroq ular bari uyushmagan, tarqoq holda edi. Mamlakat aholisi ko`p sonli qabila va etnik guruhlardan iborat bo`lib turli tillarda so`zlashar, bir-biridan alohida yashab, ba'zan o`zaro urushib ham qolar edi. Birinchi va Ikkinchi jahon urushi oralig`ida Kongo yirik Yevropa va Amerika monopoliyalari kapital sarflaydigan hududga aylandi. Chet el kompaniyalari bu yerda konlar, plantatsiyalar, xomashyoni qayta ishlash korxonalari tashkil etib,temir yo`l va elektr stansiyalari barpo qilishdi. Kongodan katta miqdorda olmos,oltin, mis, qalay, kobolt, ruh olib ketilar edi.

Mamlakatda xom ashyoni boshlang'ich qayta ishlash, transport vositalarini ta'mirlash, qurilish materiallarini ishlab chiqarish bo'yicha katta alohida korxonalar yuzaga keldi. Kongoda shahar aholisi tez ko'paya bordi. Ma'muriy boshqaruvda ishlovchi mahalliy xizmatchilar soni oshdi, hatto o'z ziyolilar qatlami yuzaga keldi. Yirik shaharlarda bir-biridan keskin farq qiluvchi "oq kvartallar" va hatto oddiy qulayliklarga ham ega bo'lmagan kulbalar paydo bo'ldi. Irqiy kamsitish, inson huquqlarining cheklanganligi, maktab, tibbiy xizmat ko'rsatish tizimining yo'qligi tub aholi hayotini o'ta nochor, og'ir ahvolga solib qo'ydi.

Urushdan so'ng Kongoda kuchli milliy-ozodlik harakati quloq yoydi 1960-yil 30-iyunda Kongo mustaqilligi e'lon qilindi. Mamlakat bosh vaziri sifatida 1958-yilda tuzilgan Milliy harakat partiyasi rahbari Patris Lumumba saylandi. Biroq Kongoning turli rayonlarida tuzilgan ko'plab boshqa partiyalar ham hokimiyatga da'vogar edilar. Mustamlakachilar madadiga tayangan partiyalar qatorida Leopoldvilda M.Chombe rahbarligidagi Milliy taraqqiyot partiyasi va Kongoning eng boy provinsiyasi- Katangadagi Kanakat partiyasini sanab o'tish mumkin²².

Lumumba Patris (1925-1960)-1960-yil iyuldan mustaqil Kongo (hozirgi Zairning birinchi bosh vaziri. Mustaqillik berilishini talab qilgan. Kongo Milliy harakati partiyasi asoschisi. 1960-yil sentabrda o'ldirilgan. Kongo mustaqil deb e'lon qilingandan so'ng bir necha kun o'tgach, M.Chombe Katanga mustaqillikka erishganligini bildirdi. Olmos koni topilgan Kasaidada esa mustamlakachilarning yana bir vorisi A.Kolonji qo'g'irchoq hukumatini tuzib, uni mustaqil deb e'lon qildi. 1960-yil sentyabrda Leopoldvilda polkovnik Mobutu rahbarligida harbiy to'ntarish yuz berdi. P.Lumumba va uning barcha safdoshlari vahshiyona o'ldirildi. Bu voqea butun mamlakatni larzaga soldi va sharqiy provinsiyalar aholisi qo'zg'olonchilik harakatini boshlab yubordi. Unga P.Lumumba o'rinbosari Antuan Gizenga yetakchilik qildi. 1962-1964-yillar davomida mamlakatda amalda ikki hokimiyatchilik hukm surdi. G'arb davlatlari yordami bilan u bartaraf etildi va

²² Lafasof M. Jahon Tarixi. – T.: Turon Iqbol, 2010.-B.303.

M.Chombe bosh vazir etib tayinlandi. Ammo 1965-yil noyabrda general Mobutu boshchiligidagi harbiylar davlat to'ntarishini amalga oshirdi. Chombe mamlakatdan qochdi va Mobutu o'zini Kongo prezidenti deb e'lon qildi.

Mobutu Sese Seko Kuku Ngbendu Va za Banga (1972-yilgacha-Jozef Dezire Mobutu) (1930-1998)-1961-yildan armiya bosh qo'mondoni. 1967-yilda Zair partiyasi-Xalq inqilob harakatini tuzgan. 1965-yildan-Zair prezidenti.Mamlakatda diktatorlik rejimini o'rnatdi. 1997-yilda g'alayonchilar tomonidan hukumatdan chetlashtirildi²³.

Mamlakat yangicha-Zair deb nom oldi. Biroq iqtisodda ilgorigidek g'arb monopoliyasi hukmronlik qilar va mamlakatning butun boyligi chet elga jo'natilar edi. Zair jahonda olmos qazib chiqarish (butun dunyodagi olmosning 60 foizi),mis va kobalt ishlab chiqarish bo'yicha birinchi o'rinda turadi, shuningdek, g'arbga katta miqdorda rux va kumush, marganets va uran yetkazib beradi. 1984-yilda Zair yangi konstitutsiya qabul qildi. Mamlakat respublika deb e'lon qilindi. Davlatni prezident boshqaradi, u ayni paytda ijroiya hukumat rahbari va qurolli kuchlar bosh qo'mondoni. 1984-yilgi prezident saylovida Mobutu 7-yil muddatga mamlakat prezidenti etib saylandi va shu vaqt ichida marshal unvoniga ega bo'ldi. Xalqaro monopoliya Zairda mustahkam o'nashib oldi. 1991-yilning avgustida Mobutuning prezidentlik muddati tugadi va u o'z vakolatini hayotining oxirigacha cho'zish uchun umummilliy konferensiya chaqirdi. Konferensiyada yangi konstitutsiya loyixasini ishlab chiqdi. Ayni paytda u hukumatni istefoga chiqardi. Natijada mamlakatda ommaviy tartibsizliklar boshlanib, u fuqarolar urushini keltirib chiqardi. Muxolifat kuchlar 31-oktabrda P.Lumumbaning izdoshi Laurent Kabila rahbarligidagi yangi hukumatni tuzdi. Kongodagi (1997-yildan Kongo Demokratik Respublikasi) fuqarolar urushi yetti-yilga cho'zildi. Afrikadagi barcha qo'shni davlatlar Mobutu rejimiga qarshi kurashda qo'zg'olonchilarga ko'mak bera boshladi. 1998-yilda M.Kabila boshchiligidagi qo'zg'olonchilar qo'shinlari Kongo poytaxti Kinshasaga kirib bordi. Mobutu mamlakatdan qochib ketdi. Biroq,

²³ Osha manba - B.304.

Kongoda tinchlik uzoq davom etmadi. 1998-yil avgustda tutsi qabilasi qo'zg'olonchilari Ruanda va Uganda qo'shinlari yordamida L.Kabilaga qarshi harbiy yurishlarni boshladi. Unga yordamga kelgan Angola, Namibiya va Zimbabve qo'shinlari qo'zg'olonchilarni tor-mor etishdi. 1999-yilda Zimbabve poytaxti Lusakada mojaroga tortilgan olti davlat o'rtasida urushni to'xtatish haqida bitim imzolandi. Biroq, qarama-qarshi tomonlar ortida turgan kuchlar oson yon berishni istashmadi. 2001-yil yanvarda U Kabila o'ldirildi. Uning o'rnini birodarkushlik urushini to'xtatishni istagan o'g'li Jozef egalladi. 2002-yil iyulda Kongo va Ruanda prezidentlari bitim imzoladi. Ruanda sharqiy Kongodan 35 ming kishilik qo'shinini olib chiqish, Kongo esa Ruandaga xavf soluvchi qo'zg'olonchilarni quolsizlantirish majburiyatini oldi. 2002-yil sentabrda bu shartnomani Uganda ham imzoladi. To'rt-yillik fuqarolik urushi davomida mamlakatda 2,5 million kishining yostig'i quridi. Unda 7 chet el qo'shini va ko'p sonli qo'zg'olonchi guruhlar ishtirok etdi. Bu qo'zg'olonchilar tez-tez urushning haqiqiy maqsadlarini tushunmay, bir-birlari bilan urush qildirdi. Vaziyat ichki etnik mojarolar tufayli ham murakkablashdi. Kongo juda boy resurslari bilan jahonda aholi jon boshiga daromad jihatidan eng kambag'al davlatdir.

3.2 Nigeriyadagi milliy ozodlik harakatlari

Bir asr davomida Angliyaning mustamlakasi bo'lib kelgan Nigeriya 1960-yil 1 oktabrda rasmiy ravishda mustaqil davlat, deb e'lon qilindi. Shunday qilib, Nigeriyada uzoq-yillar davom etgan milliy-ozodlik kurashining birinchi bosqichi siyosiy mustaqillikni qo'lga kiritish bilan tugadi. Nigeriya hukumati shundan keyinroq harbiy bloklarga qo'shilmaslik hamda barcha davlatlar bilan do'stona munosabatlar o'rnatish yo'lini o'tkazajagini tantanali suratda e'lon qildi.

Mustaqillikning dastlabki paytlaridanoq Nigeriya hukumati Angliya bilan tuzilgan mudofaa bitimini bekor etishga intildi. Chunki bu bitim Angliyaga mamlakatda juda katta imtiyozlar berar edi.

Uzoq kurash va mojarolardan so'ng xalq ommasi, ayniqsa yoshlarning

qat'iy qo'llab-quvvatlash bilan 1962-yil 21 yanvarda Angliya-Nigeriya mudofaa bitimi bekor etilganligi e'lon qilindi. Bu qaror mamlakat suverenitetini jiddiy ravishda mustahkamladi. 1963-yil 1 oktabrda Nigeriya respublika deb e'lon qilindi²⁴.

Nigeriya tez orada ko'p davlatlar bilan diplomatik munosabat o'rnatdi. Shu jumladan Sobiq Ittifoq, Chexoslovakiya, Polsha va boshqa sotsialistik davlatlar bilan diplomatik aloqalar o'rnatildi. 1963–1964-yillarda Sovet Ittifoqi va Nigeriya o'rtasida parlament delegatsiyalari almashishi bo'ldi.

1966-yili Moskva bilan Lagos o'rtasida havo yo'li ochish to'g'risida bitim tuzildi. Nigeriya Afrika Birligi Tashkilotini tuzishda aktiv ishtirok etdi. Mamlakat poytaxti Lagosda bir qator umumqit'a konferensiyalari bo'lib o'tdi. Nigeriya Namibiyaning rasist istilochilar asoratidan ozod etilishi va Janubiy Afrikadash rasist-Irqchilik rejimining tugatilishi uchun olib borilgan kurashga katta hissa qo'shib keldi va qo'shmoqda.

Ichki siyosat sohasida Nigeriya hukumati oldida juda murakkab vazifalar turard, Mustaqillikka erishilgan vaqtda mamlakat milliy daromadi jon boshiga Angliyadagiga nisbatan 14–15 marta kam edi. Jon boshiga elektr quvvati iste'mol qilish Angliyaga nisbatan 110 marta, elektr quvvati ishlab chiqarish esa 190 marta kam edi. Oliy o'quv yurtlari va o'rta maktablarda o'qiyotgan o'quvchilar Angliyaga nisbatan 15–16 marta (har 10 ming aholi boshiga hisoblaganda) kam edi.

Nigeriya mustaqillikka erishgach, iqtisodiy taraqqiyot sur'ati tezlashddi. Masalan, neft qazib chiqarish 1960-yilgi 70,6 ming tonnadan 1965-yilgi 13 million tonnaga yetdi. Nigeriya jahondagi neft qazib chiqaruvchi eng yirik mamlakatlar qatoridan o'rin oldi.

1961–1965-yillarda 200 dan ortiq yangi neft, gaz-ximiya, oziq-ovqat, to'qimachilik, poyabzal, oyna, yog'ochsozlik korxonalari va boshqa ishlab chiqarish ob'ektlari ishga tushdi. Hukumat xususiy ishlab chiqarishni rag'batlantirdi va mamlakatga chet el kapitali kirib kelishiga sharoit yaratib berdi.

²⁴ Нуриддинов З.Р. Осиё ва Африка мамлакатларининг энг янги тарихи –Т.: Ўқитувчи, 1982.-В.223

Ekonomikada davlat sektyuri ham rivojlandi.

40-yillar oxiri va 50-yillar boshida Nigeriyada palma yog‘i, kakao, araxis, paxta va boshqa mahsulotlar sotish idoralari, turli xil korporatsiyalar tashkil qilingan bo‘lib, ular, Angliya davlat-monopolistik sektorining bir qismini tashkil qilardi. Nigeriya mustaqillik olgach bularning hammasi davlat mulkiga aylandi va davlat sektorining bir qismini tashkil qildi.

1962-yil apreldan boshlab olti-yilga (1962–1968-yillar) mo‘ljallangan birinchi milliy plan amalga oshirila boshlandi. Bu planni amalga oshirish uchun 1183 ming funt sterling miqdorida kapital sarflash ko‘zda tutildi. Lekin bu planni mablag‘ bilan ta‘minlash eng qiyin masalalardan biri edi. Chunki mamlakatda chet el kapitali ta‘siri kuchli hisoblanadi. Shu sababli bu masala I umumnigeriya konferensiyasida muhokama kilinganda ko‘pchilik delegatlar bir qator chet el kompaniyalarini natsionalizatsiya qilishni yoqlab chiqdilar²⁵.

Barcha rivojlanayotgan mamlakatlar singari Nigeriya oldida ham taraqqiyot yo‘lini tanlab olish masalasi ko‘ndalang bo‘ldi. Mo‘staqillikka erishgandan keyin turli xil siyosiy partiyalar va jamoat tashkilotlari o‘z programmalarini ilgari surdilar.

1963-yil avgustda mamlakatda Nigeriya sotsialistik ishchi-dehqon partiyasi tashkil topdi. Bu partiya o‘z faoliyatida ilmiy sotsializm nazariyasiga suvandi, saflariga ishchilar, dehqonlar va ziyolilarni birlashtirdi. 1965-yil dekabrda partiyaning sezdi bo‘lib o‘tdi. S‘ezd omma orasida partiya ta‘siri oshayotganligini namoyish qildi. Partiyaning “Edvaj” (“Olg‘a”) nomli gazetasi chiqarila boshlandi.

1952–1953-yillardagi aholi ro‘yxati ma‘lumotlariga qaraganda, mamlakatda 1,3 mln.bola maktablarda o‘qir edi.1965–1966 o‘quv-yili universitetlarda 7,3 ming student ta‘lim olgan.Mamlakat iqtisodi va maorifida ayrim muvaffaqiyatlar qo‘lga kiritilganiga qaramay,o‘n millionlarcha aholining moddiy ahvoli hamon og‘ir holda qolib kelmoqda, ishsizlik ko‘paymoqda.1964-yil iyunda Nigeriya va butun Tropik Afrika tarixida eng yirik ish tashlash sodir bo‘ldi.

²⁵ Нуриддинов З.Р. Осиё ва Африка мамлакатларининг энг янги тарихи –Т.: Ўқитувчи, 1982.-В. 223-224

Bunda 800 mingga yaqin ishchi va xizmatchi ishtirok etdi. Natnjada mehnatkashlar ish haqi bir oz oshirildi.

O'sha-yili dekabrga mo'ljallangan federal saylovlar arafasida Nigeriyada bir-biriga qarama-qarshi ikki siyosiy blok paydo bo'ldi. Bulardan biri-"Buyuk progressiv birlashgan ittifoq"

bo'lib,unga "faoliyat gruppasi" va Shimoli Nigeriya progressiv bloki kirdi. Nigeriyaning Milliy ittifoqiga esa shimoliy xalqlar kongressi partiyasi rahbarlik qildi. Saylovlarda nigeriyaning milliy ittifoqi g'alaba qilganligiga qaramay ichki axvol hamon keskinligicha qolaverdi. Anashunday murakkab bir vaziyatda mamlakatda xarbiy to'ntarilish amalga oshirildi. 1966-yil 29 yanvarda Nigeriya radiosi orqali so'zlagan Agiyi Ironsi o'z programmasini elon qildi. 24 mayda oliy harbiy maxalliy xukumatlarni tarqatib yuborganini elon qilib dekret chiqardi. Siyosiy partiya va tashkilotlar faoliyati taqiqlab qo'ildi. Mamlakatda ironsi xukumatiga qarshi norozilik chiqarishlari boshlandi. Ularga qarshi ommaviy qirg'inlar uyushtirildi.

1966-yil oxirida Nigeriyada yangi davlat to'ntarilishi bo'lib o'tdi. Hukiyat tepasiga Yoqub Govon keldi U 1975-yil 29 iyulgacha mamlakat tepasida turdi. Biroq bu hukumatham mamlakat ahvolini yahshilay olmadi.

1967-yil yozda federal hukumat bilan sharqiy nigeriya qo'shinlari o'rtasida harbiy harakatlar boshlandi. Uchinchi harbiy hukumat general Murtad Muhammed tomonidan idora qilindi. U faqat 200 kun davlat tepasida turdi. 1976-yil 15 fevralda uni fitiachilar o'ldirdilar. Hokimiyat tepasiga Olusegun Obosaido hukumati keldi. Bu hukumat harbiy idora usulidan grajdan idora usuliga o'tishga intildi.

1979-yili 7—14 iyulda Nigeriya federal parlamentining ikkala palatasiga saylovlar bo'lib o'tdi. 21 iyulda shtatlar assambleyasiga va 28 iyulda shtatlar gubernatorligiga saylovlar bo'ldi. O'sha-yil avgustda xalq o'z mamlakatiga prezident sayladi. Uzoq davom etgan saylov oldi kurashlaridan so'ng Nigeriya Milliy partiyasining lideri Alxodja Shexu Shagari prezideit bo'ldi. 14 dekabrda

yangi hukumat tashkil topdi. Bu hukumat sostaviga prezident va vitseprezidentdan tashqari 24 federal va 17 davlat ministri kirdi. Hukumat sostaviga ikkita ayol ham kiritildi²⁶.

70-yillarda Nigeriya o'z iqtisodiy va ijtimoiy tarakdiyotida ancha ilgari odimladi. Mamlakat jaxondagi eng yirik neft chiqaruvchi davlatlardan biriga aylandi. Mamlakatda ko'plab neft chiqaruvchi, uni qayta ishlovchi korxonalar va boshqa turli xil sanoat ob'ektlari qurildi va qurilmoqda. Sovet Ytifoqi yordamida qurilayotgan hamda Afrikada eng yirik hisoblangan Adjaokut zavodining-yiliga 1,3 mln.tonna po'lat bera oladigan birinchi pavbatini ishga tushirish 1983-yilga mo'ljallandi.

Lekin shunga qaramay, mamlakat mehnatkashlar ommasining ahvoli hamon og'ir. Mamlakat tashqi qarzlar ortib bormoqda. bu qarz 1977-yili 1,3 milliard dollarni tashkil etgan bo'lsa, 1979-yili 1,8 milliard dollarga yetdi. Qishloq xujaligida axvol ayniqsa og'ir. Bir mahallar araxis va palma yog'i eksport qilishda jahonda oldingi o'rinda turgan Nigeriya 70-yillar oxiriga kelib, bu mahsulotlarni o'zi import qila boshladi. Kakao eksport qilish ham kamayib ketdi. Qishloq xo'jaligi va sanoatni ryavojlantirish masalasida keng mashtabli programmani amalga oshirish vazifasi turibdi. 1979-yil oktabr oyida bo'lib o'tgan Nigeriya Milliy partiyasining ikkinchi s'ezdi tufayli 1980-yili guruch, mayiz, kasava, araxis va boshqa ozuqabop ekinar yetishtirishni ko'paytirish maqsadida 18,3 million nayir (30 mln dollarga yaqin) mablag' ajratish ko'zda tutildi.

Nigeriyaning yangi hukumati Afrika birligini kit'a janubida Irqchilikni tugatish va barcha mamlakatlar o'zaro do'stlik hamda hamkorlikni rivojlantirish jahonda tinchlikni saqlashga qaratilgan siyosat o'tkazilmoqda.

3.3 Gvineya respublikasidagi milliy ozodlik harakatlari

Fransiya Afrika qitasida o'zi bosib olgan territoriyalarni 1904-yili yagona "mustamlaka federatsiyasi"—Fransuz G'arbiy Afrikasiga (FZA)

²⁶ Нуриддинов З.Р. Осиё ва Африка мамлакатларининг энг янги тарихи –Т.: Ўқитувчи, 1982.-В.225.

aylantirdi. Federatsiyaga avval yetti davlat–Senegal, Sudan, Mavritaniya, Gvineya, Fil Suyagi Qirg‘og‘i, Niger, Dagomeya kiritilgan edi. 1919-yili unga Yuqori Volta ham qo‘shildi.

Mahalliy mehnatkashlar ommasini siyosiy va iqtisodiy hayotdan tamom chetda, huquqsizlik va jaxolat zulmatida saqlash maqsadida fransuz mustam chakachilari o‘zlarining hamma mustamlakalarida siyosiy partiyalar va kasaba soyuzlari tuzishni man etdilar. Masalan, Gvineyada hatto diniy jamiyatlar faoliyati ham man etilgan edi. Shunga karamay, mustamlakalarda mustaqillik uchun kurashuvchi yashirin siyosiy oqimlar va tashkilotlar shakllana boshladi. Ularning faoliyati oktabr davlat to‘ntarilishi oqibatida vujudga kelgan g‘oyalar ta’sirida faollashdi.

G‘arbiy Afrika mamlakatlarining ko‘pchiligida milliy burjuaziya ikkinchi jahon urushidan keyingi-yillarda tashkil topa boshladi. Ishchilar harakati ham faqat urushdan keyingi-yillarda vujudga keldi va o‘sib bordi.

1940-yil iyulda Fransiya Germaniyaga taslim bo‘lgach, fransuz G‘arbly Afrikasi fashistlar hukmronligi ostida qoldi. 1942-yil noyabrda ilgliz-amerika qo‘shinlari Shimoliy Afrikaga tushirilgach, G‘arbiy Afrika territoriyasi ham ingliz-amerika qo‘shinlari qo‘liga o‘tdi. 1943–1945-yillar davomida G‘arbiy Afrika mamlakatlari ingliz-amerika harbiy ma’muriyati nazorati ostida bo‘ldi. Urush butun qit’ada bo‘lgani silgari G‘arbiy Afrika mamlakatlari xalqlari uchun ham katta kulfatlar olib keldi.

G‘arbiy Afrikadagi milliy-ozodlik harakatining o‘rishida 1946-yili Bomako (Mali)da chaqirilgan qit’a vakillari kongressi katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Qongressida Afrika Demokratik Birlashmasi tashkil topdi. Bu tashkilot fransuz ishchilar sinfi va boshqa progressiv kuchlarning qo‘llab-quvvatlashi bilan vujudga kelgan yedi. Tashkilotining paydo bo‘lishi Tropik Afrika xalklarining ayrim stixiyali chiqishlardan keng ko‘lamdagi siyosiy kurash yo‘liga o‘tganligidan darak berar edi²⁷.

²⁷ Нуриддинов З.Р. Осиё ва Африка мамлакатларининг энг янги тарихи –Т.: Ўқитувчи, 1982.-В.232.

Afrika Demokratik birlashmasi tashkiloti saflari uzluksiz o'sib bordi. Ozodlik harakatlari keng quloch yoyib ketganligidan tashvishga tushgan fransuz istilochilari bu partiyaning tugatish payiga tushdilar.

Shu-yillarda Fransiya Mehnat Federatsiyasi yordamida G'arbiy Afrikada kasaba soyuz harakati ham kuchaydi. 1956-yilga kelib kasaba soyuz a'zolari soni 180 ming kishiga yetdi. 1957-yili Qoton (Dagomeyada)da G'arbiy Afrika 1 s'ezdi bo'lib o'tdi. S'ezdda Qora Afrika mehnatkashlarining Umumiy birlashmasi tashkil topdi.

Milliy-ozodlik kurashining tinmay o'sib borayotgan ko'lami fransuz mustamlakachi ma'murlarni taxlikaga soldi va ular ayrim yon berishlarga majbur bo'ldilar. Ular katta va yaxlit territoriyadan iborat bo'lgan mustamlakalarini sakkizta ayrim davlatlarga ajratib yubordilar. Bu yo'l bilan ular milliy-ozodlik harakatini ham bo'lib yubormoqchi bo'ldilar. Biroq ularning umidlari puchga chiqdi. Dastlabki galabalardan ilhomlangan xalq ommasini kurashni yanada kuchaytirdi. 1957-yil sentabrda Afrika mustaqillik partiyasi tashkil topdi. Bu Partiya G'arbiy Afrikaga tezda mustaqillik berishni talab qildi. Bu chiqishlardan vahimaga tushgan Fransiya hukumati yangi hiyla-nayrang ishlatish yo'liga o'tdi.

Hukumat konstitutsiyasining yangi loyihasini tayyorladi. Bu konstitutsiya loyihasiga ko'ra, Fransiya ittifoqi Fransuz-Afrika birlashmasiga aylantirildi.

1958-yil 28 sentyabrda Fransiya va uning G'arbiy Afrikadagi mustamlakalarida Fransiya hukumati tuzgan yangi konstitutsiya loyihasiga bag'ishlab, referendum o'tkazildi. Bu mustamlakalar taqdirini yuqoridan turib hal etishga urinish edi. Gvineyadagi saylovchilarning 95,4 mamlakat mustaqilligi uchun ovoz bergan edi. Bu muvaffaqiyatga erishishda Gvineyaning 1947-yili tashkil topgan Demokratik partiyasi katta rol o'ynadi. Natijada Gvineya fransuz Afrikasi birlashmasi sostavidan chikdi va Tropik Afrika mamlakatlari ichida birinchi bo'lib mustaqillikka erishdi. 1958-yil 2 oktabrda territorial Assambleya Gvineyani mustaqil respublika deb elon qildi. 5 oktabrda Sovst Ittifoqi Gvineya respublikasini tanidi. o'sha-yil dekabrda Respublika Birlashgan millatlar

tashkilotiga kabul qilindi²⁸.

Fraitsiya 1958-yiliyoq Gvineyadan o'z texnik mutaxassislarini tezda olib keta boshladi. Fransuzlar yosh respublikadan juda katta kapital olib chiqib ketdilar.

1958-yil 10 noyabrda Gvineyaning milliy Ta'sis majlisi bir ovozdan Gvineya Konstitutsiyasini qabul qildi. Konstitutsiyaga ko'ra, respublika grajdanlariga keng demokratik erkinliklar berildi. Respublika prezidenti (ayni vaqtda hukumat boshlig'i) umumiy ovoz bilan har 7-yilda saylanadigan bo'ldi. Prezident mamlakatning oliy organi–Milliy majlis oldida javobgar. Gvineya Respublikasining birinchi prezidenti qilib, Gvineya Demokratik partiyasining yo'l boshchisi Seku Ture saylandi.

Gvineya Demokratik partiyasi respublikada davlat sektori va kooperatsiyani rivojlantirishga alohida e'tibor berdi. Partiya mamlakatning sotsialistik orientatsiya yo'lidan taraqqiy etajagini e'lon qildi.

Gvineya xo'jaligi 1960–1963-yillarga mo'ljallangan uch-yillik va 1964–1970-yillarga mo'ljallangan yetti-yillik planlar hamda qabul qilingan (1974–1978-yillar) besh-yillik plan asosida rivojlantirildi. Bir qator davlat korxonalari–konserva va taxta zavodlari, meva sharbatlari va to'qi-machilik fabrikalari, gugurt-sigaret kombinati, gidroelektro-stansiyalar va boshqalar qurildi. Davlat sektori asta-sekin kengaya boshladi. Chet el kapitaliga qaraydigan korxonalar natsionalizatsiya qilindi.

Shahar va qishloqlarning keng mehnatkashlar ommasi aktiv siyosiy hayotga jalb etildi. Gvineya demokratik partiyasi kasaba soyuzlari, xotin-qizlar, yoshlar va boshqa jamoat tashkilotlariga tayangan holda ish olib bordi.

Gvineya Respublikasi maorif sohasida ham katta yutuqlarga erishdi. Ilgari mamlakatdagi bolalarning faqat 8 foyizi maktablarda o'qir edi. 1970-yilga kelib, bu ko'rsatkich 65 foyizga yetdi. Respublikada politexnika, pedagogika va to'rtta o'qituvchilar institutlari, Oliy ma'muriy maktab vujudga keldi. Yuzlab qishloq xo'jalik kooperativlari tashkil qilindi.

²⁸ Нуриддинов З.Р. Осиё ва Африка мамлакатларининг энг янги тарихи –Т.: Ўқитувчи, 1982.–В.233.

Respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar programmasida agrar masala muhim o'rin egalladi. Kooperativlashtirish birinchi uch-yilliq plani (1960–1963-yillar) amalga oshirish paytidayoq boshlangan edi. 1974–1978-yillarga mo'ljallangan besh-yillik planga ko'ra, kooperativlashtirishning turli formalaridan foydalanila boshlandi. 1976-yilga kelib, mamlakatda turli xildagi 2300 kooperativ tashkil topdi. Gvineya hukumati hozir yangi xo'jaliklarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga katta e'tibor bermoqda.

Tashqi siyosatda respublika hukumati qo'shilmaslik yo'lini o'tkazmoqda. Fransiya bilan Gvineyaning munosabati ko'p-yillardan beri nochor holda qolib kelmoqda. Diplomatik munosabatlar 1965-yili uzilganicha hamon tiklangan emas. Boshqa bir qancha kapitalistik mamlakatlar Gvineya Respublikasi bilan aloqalarini mustahkamlashga intilmoqdalar.

Gvineya milliy ekonomikasi va madaniyatini rivojlantirish hamda uning mustamlaka o'tmishdan qolgan og'ir merosini tezroq tugatishda sotsialistik mamlakatlar har tomonlama yordam ko'rsatdilar va ko'rsatmoqdalar. Sovet Ittifoqi bu mamlakatga imtiyozli katta qarz berdi. Qeyinchalik tuzilgan bitim va kelishuvlar asosida Sobiq Ittifoq Gvineyaga qator sanoat ob'ektlari qurishda, qishloq xo'jaligini, transport, maorif va sog'liqni saqlashni rivojlantirishda yordam berdi. Sobiq Ittifoq oliy o'quv yurtlarida Gvineyaning minglab studentlari ta'lim oldi. Respublika prezidenti Seku Ture bir necha bor Sobiq Ittifoqda bo'ldi.

3.4 Zimbabvedagi milliy ozodlik harakatlari

19-asr 50–60-yillarida Zimbabvega ingliz mustamlakachilari bostirib kira boshladi. 1889-yil Angliya qirolichasi Viktoriya “Britaniyaning Janubiy Afrika kompaniyasi” (“British Saut Afrika kompani” 1888-yil S. Rode tomonidan tuzilgan)ga Zimbabve hududi ustidan ma'muriy rahbarlik qilish huquqini berdi. S. Rode tabele qabilasining oliy boshlig'i Lobenguladan foydali qazilmalarni qazib olish uchun ruxsatnoma ham oldi. 1893 y. ingliz qo'shinlari mamlakatni bosib oldi va uni Rode sharafiga Janubiy Rodeziya deb atay boshladi. Afrikaliklar

mustamlakachilarga qarshi bir necha marta qo‘zg‘olon ko‘tarib chiqishdi, ayniqsa 1896– 97-yillarda juda katta qo‘zg‘olon bo‘lib, mustamlakachilar uni shafqatsizlik bilan bostirdi.

1923-yili Zimbabve “o‘zini o‘zi idora qiladigan” mustamlaka maqomini oldi. Og‘ir ekspluatatsiya, soliqlar afrikaliklar tinkasini quritib, mustamlakachilarga qarshi g‘azabini kuchaytirdi. 2-jahon urushidan so‘ng mustamlakachilikka qarshi harakat avj olishi bilan Angliya hukumati 1953-yil Rodeziya va Nya-salend federatsiyasini tuzdi. 1963-yilga kelganda bu federatsiyaga putur yetib, mamlakatda ozodlik harakati avj ola boshladi. 1965-yil ozchilikni tashkil etgan yevropaliklardan tuzilgan Yan Smit hukumati ko‘pchilikdan iborat afrikaliklar huquqini poymol etib, Janubiy Rodeziyani “mustaqil” deb e‘lon qildi. 1969-yil mamlakatda Irqchilikni mustahkamlashga qaratilgan yangi “konstitutsiya” qabul qilindi²⁹.

Smit hukumatining siyosati afrikaliklarning qattiq qarshiligiga duchor bo‘ldi. 1974-yil Milliy majlisga o‘tkazilgan saylovni afrikaliklar boykot qildilar. 1974-yil dekabrda Lusaka (Zambiya)da Afrika Milliy kengashi, Zimbabve afrika xalqi ittifoqi, Zimbabve afrikaliklar milliy ittifoqining rahbarlari Jan.Rodeziya mahalliy aholisining tub manfaatlarini ifoda etgan konstitutsion konferensiya chaqirishni talab etdilar. Mazkur uchrashuv qatnashchilari kelishib, o‘z tashkilotlarini birlashtirib, yagona partiya Afrika Milliy kengashini tuzishga ahd qildilar. Janubiy Rodeziya mahalliy aholisining Irqchilik tuzumiga qarshi ozodlik harakatini Afrika birdamligi tashkiloti, barcha taraqqiyparvar kuchlar quvvatladi. 1976-yilda tuzilgan hamda Afrika Milliy kengashi bilan Zimbabve afrika xalqi ittifoqini o‘z ichiga olgan Zimbabve vatanparvarlik fronta bu kurashning kuchayishiga ko‘maklashdi. 1978-yilda Ya. Smit bilan afrikalik qo‘g‘irchoq arboblari o‘rtasida “ichki ahvolni tartibga solish to‘g‘risida bitim tuzildi. 1979-yil aprelda o‘tkazilgan soxta saylov natijalarini xalqaro miqyosda hech kim tan

²⁹ Родригес А.М. Новейшая История стран Азии и Африки XX века. –Москва: 2005.-С.345

olmadi. O'sha-yil dekabrda Londonda bo'lib o'tgan konferenpiyada bo'lg'usi konstitutsiya va saylov o'tkazish to'g'risida kelishib olindi. 1980-yildagi saylovda vatanparvar kuchlar g'alaba qozondi. 1980-yil 18 aprelda mustaqil Zimbabve Respublikasi e'lon qilindi. 1987-yilgi saylov ham shu kuchlar g'alabasi bilan yakunlandi. Zimbabve 1980-yildan BMT a'zosi Milliy bayrami—18 aprel Mustaqillik e'lon qilingan kun (1980). O'zRning mustaqilligini 1992-yil 27 yanvarda tan olgan.

3.5 Keniyadagi milliy ozodlik harakatlari

19-asr oxirida Keniya Buyuk Britaniya qo'l ostiga o'tdi. Mustamlakachilar mahalliy aholidan unumdor yerlarni tortib oldi. Afrikaliklar maxsus ajratilgan joylarda yashashga majbur etildi. Irqiy kamsitildi. 1920-yilda Keniya Buyuk Britaniya mustamlakasi deb e'lon qilindi. Shunlan keyin mustamlakachilikka qarshi harakat qiluvchi siyosiy tashkilotlar (Kikuyyu tashkiloti va b.) tuzilib, ular majburiy mehnat bekor qilinishi, soliqlar qisqartirilishini, maorif tizimi yaxshilanishi va tortib olingan yerlar qaytarib berilishini talab qildi. 2-jahon urushi davrida Keniya oziq-ovqat va xom ashyosi yetkazib beruvchi maibaga aylantirildi keniyalik askarlar Buyuk Britaniya mustamlaka qushinlari safida Yaqin Sharq va Birmadagi urushda qatiashdilar. 40-yillar oxirida ozodlik harakati yanada kuchaydi. 1952-yilda qurolli qo'zg'olon boshlandi. Ko'zg'olon 4-yil davom etdi. Mustamlakachilar qo'zg'olonni bostirib, vatanparvarlardan 11 ming kishini o'ldirdi, 100 mingga yaqin kishini qamoqqa oldi. 1960-yil tuzilgan Keniya afrikaliklar milliy ittifoqi (KANU) Keniya mustaqilligini talab qildi. 1961-yil Qonun chiqaruvchi kengashga o'tkazilgan saylovda KANU 67% ovoz oldi. 1963-yil mayda yangi Millat majlisiga o'tkazilgan saylovda ham KANU g'olib chiqib, J. Keniata boshchiligida birinchi milliy hukumat tuzildi. 1963-yil 12 dekabrda Keniya mustaqil davlat, 1964-yil 12 dek.da esa respublika deb e'lon qilindi Keniya—1966-

yildan BMT a'zosi. Milliy bayrami–12 dekabr–Mustaqillik kuni (1963).

4. JANUBIY AFRIKA MAMLAKATLARINING MILLIY OZODLIK HARAKATLARI

4.1 JAR dagi milliy ozodlik harakatlari

Afrikadagi oxirgi mustamlaka Janubiy Afrik Respublikasi bo'lib, aholining 85 foizini qora tanli negrlar tashkil qilar edi. Oq tanlilarning mafkuraviy asosi Irqchilik va irqiy kamsitishdan iborat bo'lgan Shaharlarda asosan yevropaliklar yashashi lozimligi ta'kidlab turilar edi. Irqchilikning kuchayishi, mehnatkashlarning irqiy belgilariga ko'ra ajratilishi, oq va qora tanlilarni bir-biriga gij-gijlash davlat ichki siyosatining asosiy mohiyatini anglatar edi. 1924-yilda qabul qilingan "oq tanli bo'lmagan aholi va sivilizatsiyalashgan mehnat" to'g'risidagi qonun afrikaliklarni malaka yoki qisman malaka talab qilinadigan ishlarga qo'yishni taqiqladi. Afrikaliklar saylov huquqlaridan mahrum qilingan edi. Bunday siyosat urushdan keyin yanada kuchaydi. U Irqchilik bilan "boyidi". Bu so'z JARning rasmiy tili-afrikaans tilida "ajratilgan" degan ma'noni anglatadi. Yangi atamani kirita turib, JARning davlat arboblari har bir irq ikkinchisidan alohida yashashi, o'z hayot tarzi va rivojlanish yo'liga ega bo'lishi zarurligi Bibliyada qayd etilganligini ta'kidlashar edi. Qon tozaligini saqlab qolish davlat siyosati darajasiga olib chiqildi. Irqchilik siyosati JARning tub aholisiga nisbatan

ayovsiz munosabatda bo'lish va zanjilarning oq tanlilar istagiga nisbatan qarshiligini sindirishda qo'l keldi. 1946-yil-irqiy kamsitishga qarshi birinchi chiqishlar bo'ldi. 1950-yilda qabul qilingan "guruhlar bo'yicha joylarga o'rnatish" to'g'risidagi qonun Irqchilik tizimining eng shafqatsiz harakati bo'lib qoldi. Mazkur qonunga ko'ra yevropaliklar butun mamlakat hududining 87 foiz, afrikaliklar esa atigi 13 foiz maydoniga o'rnatib yashashi lozim edi. Afrikaliklar uchun ajratilgan joylarda Irqchilik rejimi tufayli 10 ta to'g'irchoq "milliy davlat"-bantustanlar tashkil topdi. Ulardan to'rttasi (Transkey, Boputatsvana Vena, Siskey) hatto "mustaqil" deb e'lon qilindi. Bantustanlarda hokimiyat qabila boshliqlariga tegishli bo'lib, ular yevropalik amaldorlarga tobe edi³⁰.

Bantustanlar-milliy-ozodlik kurashini sustlashtirish uchun qabila belgisiga ko'ra aholini tarqoq holda joylashtirish maqsadida JAR hududida irqchilar hukumati tomonidan barpo etilgan soxta davlatlar. Ayni paytda "o'z-o'zini boshqarish"ga ruxsat bergan holda qonun rezervatsiyalardan tashqarida istiqomat qilayotgan afrikaliklar uchun qolgan huquqlarni bekor qildi. Qonun sanoat rayonlarida yashayotgan va zavod, fabrika hamda shaxtalarda ishlovchi ikki million afrikaliklarga qarshi qaratilgan edi. Ular mazkur rayonlarda vaqtinchalik istiqomat qiluvchi fuqaro holatiga tushib qolishdi va har qanday paytda o'z rezervatsiyalariga majburan jo'natib yuborilishi mumkin edi. Bundan tashqari belgilangan vakillar-qabila boshliqlari foydasiga ishchilar maoshining bir qismini olib qolar va ularning yurish-turishini kuzatib turgan. Bu rejim g'arb dunyosining bir qismi edi. JAR jahon bozoriga butun dunyodagi jami qazib chiqarilayotgan oltinning yarmidan ko'pini, olmosning 30 foizini hamda g'arb atom sanoatining asosi bo'lmish uranning 25 foizini yetkazib berar edi. Shuning uchun g'arb mamlakatlari ushbu davlatni siyosiy, harbiy va iqtisodiy mustahkamlash uchun katta mablag` sarflay boshladi³¹.

Urushdan keyin JAR dunyodagi eng rivojlangan davlatlar qatoridan joy

³⁰ Родригес А.М. Новейшая История стран Азии и Африки XX века. –Москва: 2005.-С.266.

oldi. Metallurgiya, to'qimachilik, oziq-ovqat va harbiy sanoat yuqori texnik darajada ishlay boshladi. Shimoliy Afrika boy berilgach, JAR Tropik Afrikada milliy-ozodlik harakatiga qarshi kurashda g'arb davlatlarining eng ishonchli ittifoqchisiga aylandi. JAR qo'shinlari noqonuniy ravishda Namibiyani bosib oldi, bir necha marta Angola va Mozambik hududlariga bostirib kirdi, boshqa qo'shni afrika davlatlarini bir-biriga qarama-qarshi qo'yish uchun turli harbiy ig'vogarlikni keltirib chiqardi. Ingliz-fransuz-isroil Misrga qarshi kompaniyasi davrida JAR o'z soldatlarini va harbiy-havo kuchlarini jo'natishga tayyor turgan edi. 1984-yilda mamlakatning yangi konstitutsiyasi qabul qilindi. Unga ko'ra oq tanlilar hokimiyatini saqlab qolishni kafolatlovchi uch palatali parlament (oq tanlilar, afrikaliklar va hindular uchun) tuzildi. Davlatni prezident boshqarar va vazirlar mahkamasiga ham rahbarlik qiladigan bo'ldi.

Janubiy Afrikaning tub aholisi mustamlakachilarga qarshi uzoq-yillar kurash olib bordi. Birinchi yirik to'qnashuv 1946-yilning avgustida Randa konlarida ro'y berdi. Bir hafta davomida 100 ming konchi ish haqi borasidagi kamsitilish yo'q qilinishini talab qilib namoyish o'tkazdilar. Chunki afrikalik ishchi yevropalik ishchiga qaraganda bir xil mehnat uchun 50 baravar kam haq olar edi, ishchilar namoyishi o'qqa tutildi. Yirik shaharlarda afrikaliklar tintuv qilindi. Kompartiya va kasaba uyushmalar rahbarlari hibsga olindi. Kurashni esa to'xtatib bo'lmadi. Irqchilik-tub Afrika aholisiga nisbatan JARda olib borilgan irqiy diskriminatsiya va segregatsiya siyosati. Bu siyosat tub afrikaliklarni fuqarolik huquqlaridan mahrum qilish, ularni alohida kvartallarga joylashtirish, bir hududdan ikkinchisiga erkin o'tishni cheklash va hokazo kamsitishlardan iborat. Teng huquqli hayot uchun kurashda Afrika Milliy Kongressi (AMK) afrikaliklarning haqiqiy yetakchisiga aylandi. 50-yillarda AMK a'zosi 100 ming kishigacha yetdi. U kichik-kichik yon bosishlarni talab qiluvchi tashkilotdan Irqchilik rejimini butkul tugatish uchun kurashuvchi kuchli siyosiy tashkilotga aylandi. U Janubiy Afrika milliy kongressi bilan yaqin aloqa bog'ladi. Mazkur kongress M.Gandi tomonidan shu yerda istiqomat qiluvchi hindularning vakili sifatida tashkil

qilingan edi. 1950-yil 26-iyunda ular birinchi marta irqiy kamsitilishga qarshi birgalikda norozilik namoyishini o'tkazdi. Shundan beri shu sana milliy norozilik bildirilgan kun sifatida nishonlanib kelinadi.

1955-yil 26-iyunda Ioxannesburgda Milliy kongress chaqirildi va unda mamlakatning barcha chekkalaridan 3 mingdan ziyod delegat ishtirok etdi. Kongress ozodlik Xartiyasini qabul qildi. Unda Janubiy Afrikada barcha millat guruhlari va barcha aholi uchun teng huquqlar joriy etilgan demokratik davlat tuzish dasturi ilgari surilgan edi. 60-yillar boshida JARdagi ahvol birdan keskinlashdi. 1960-yilning martida politsiya Ioxannesburg va Keyptaun shaharlari chekkasida tinch namoyishchilarni o'qqa tutdi. Yuzlab namoyishchilar o'ldirildi. Terrorning yangi to'liqini yetilib kelayotgan edi. 20 mingdan ortiq kishi hibsga olindi, AMK taqiqlab qo'yildi. BMT Bosh Assambleyasi barcha davlatlarga JAR bilan diplomatik aloqalarni uzishga, ushbu mamlakat tovarlarini, birinchi galda neft va qurol-yarog'ni boykot qilishga chaqirdi. Shuningdek, har qanday madaniy va sport sohalari bo'yicha aloqalar ham taqiqlandi. Bu chora-tadbirlar samarasiz bo'lib chiqdi. Chunki g'arb davlatlari BMT qarorini nazar-pisand qilmasdan irqchilar bilan iqtisodiy aloqalarni davom ettiraverdi. Yashirin shaklda bo'lsada, JARga qurol-yarog' yetkazib berish to'xtamadi³².

Jazolar va terror natija bermadi, JAR rahbar doiradagilari rejimni bir oz yumshatishga majbur bo'ldi. 1989-yil sentabrdagi parlament saylovlarida Irqchilikga qarshi kurashuvchi F.V. de Klerk rahbarligidagi Milliy partiya g'alaba qozondi. 1990-yili fevralda de Klerk 30-yil davomida taqiqlangan AMK faoliyatiga ruxsat berdi. AMK yetakchisi Nelson Mandela 27-yillik qamoqdan so'ng ozodlikka chiqdi. 1991-yilda u AMK prezidentligiga saylandi. Mamlakatda 1986-yilda joriy qilingan favqulodda holat bekor qilindi. Boshqaruvchi Milliy partiya o'z safiga barcha irq vakillarini qabul qilishga ruxsat berdi. Biroq Irqchilikning tugatilishi og'ir kechdi, mahalliy aholi o'rtasida janjal bo'lib o'tdi. Yevropaliklarning qora tanlilar bilan teng huquqli bo'lishiga ko'nikishi qiyin

³² Родригес А.М. Новейшая История стран Азии и Африки XX века. –Москва: 2005.-С.267.

kechdi. Ular o`rtasida bir necha marta qurolli to`qnashuv bo`lib o`tdi.

Mandella Nelson (1918-yilda tug'ilgan)-JAR ozodlik harakatining faol arbobi, Irqchilikga qarshi kurashchi. 1964-yilda umrbod qamoq jazosiga hukm qilingan. 1991-yilda ozod qilindi³³. 1994-yildan JAR prezidenti. JARda mustamlakachilik tuzumi eng uzoq-1992-yilgacha saqlanib qoldi. 1992-yil avgustda AMK demokratik islohotlarni o`tkazishdagi sustkashlikka qarshi ommaviy norozilik aksiyalarini o`tkazishni boshladi. Faqat qora tanli aholing ommaviy chiqishlari va mustaqillikka erishgan qo`shni afrika mamlakatlari tazyiqi ostidagina 1993-yilning mayida Ioxannesburgdagi ko`ptomonlama muzokaralar orqali hamma irq vakillari uchun teng huquqli asosda parlament saylovlari o`tkazishga kelishib olindi. 1994-yil 26-aprelda bo`lib o`tgan saylovlarda AMK ishonchli g`alabani qo`lga kiritdi va N.Mandela qora tanlilar ichida JARning birinchi prezidenti etib saylandi. U hukumat tarkibiga Irqchilik davrida ajratib ko`rsatilgan to`rtta irq vakillarini kiritdi. Afrikada mustamlakachilik, Irqchilik va Irqchilik davri barham topdi. JAR demokratik islohotlar yo`liga o`tib oldi. 1993-yilda N.Mandela va F.V.de Klerkga tinchlik o`rnatish borasidagi xizmatlari uchun Nobel mukofoti berildi. 1993-yili de Klerk va Nelson Mandela o`rtasida muzokaralar bo`lib o`tdi, yangi demokratik konstitutsiyaning asosiy prinsiplari to`g`risida bitimga erishildi. Bantustanlar tugatildi va 9 provinsiyadan tarkib topishi zarur bo`lgan umummilliy davlat tizimi tarkibiga qo`shib olindi. 26-29-aprelda mamlakat tarixida ilk bora yalpi yasbirin saylov bo`lib o`tdi. Nelson Mandelaning Afrika Milliy kongressi partiyasi 62,7% ovoz bilan ishonchli g`alaba qozondi, ayni mahalda oq tanli millatchilarning Liberal partiyasi esa atigi 20,4% ovoz oldi, xolos. Yangi bir kuch ham maydonga chiqqan edi. Qora tanli aholining manfaatlarini ifoda etuvchi tag`in bir partiya-Zuluslar provinsiyasidan Inketa Ozodligi partiyasi 10,5% ovoz olgan edi. Qora tanli aholi orasida bo`linish ro`y berdi. Inketa Zuluslar provinsiyasida viloyat hukumatida ko`pchilikka ega bo`ldi va saylov yakunlanganidan keyinq markaziy hukumat va zuluslar o`rtasida

³³O`sha manba. - B.270.

shiddatli janglar boshlanib ketdi. Hamma voqealar Kongodagi senariy bo'yicha ro'y berdi, endi oq tanli millatchilar zuluslarni qo'llab-quvvatlashdi. 1996-yil 10-dekabrda yangi parlament mamlakatning Irqchilik hamda u bilan bog'liq bo'lgan rasmiy hujjatlarni bekor qilgan va tugatib tashlagan birinchi konstitutsiyasini qabul qildi. Barcha fuqarolar qonun oldida tengligi e'lon qilindi. 1999-yil 2-iyundagi saylovda Afrika Milliy kongressi tag'in ishonarli g'alaba qozondi. Nelson Mandelaning safdoshi Janubiy Afrika Respublikasi vitse-prezidenti va Afrika Milliy kongressi yo'lboshchisi Tabo Mbeku Prezident etib saylandi-u mamlakatning butun xalq tomonidan saylangan birinchi prezidentidir. Biroq ana shu saylovlar markaziy hukumat siyosatini barbod etishga kirishgan Liberal partiya (LP) va Yangi Milliy partiya (YMP) siymosida muxolifat kuchlarining faollashuviga signal bo'ldi. Liberal partiya aholisining ko'pchihgini oq tanlilar tashkil etadigan va mamlakatning asosiy iqtisodiy kuchlari joylashgan g'arbiy kaplar provinsiyalarini nazorat qilmoqda. Bularning barchasi mamlakatning istiqboldagi keskin ijtimoiy va siyosiy mojarolaridan dalolat berayotir.Ommaviyligi va prezidentlikka qayta saylanish imkoniyati bo'lsa ham, N.Mandela iste'foga chiqdi. 1999-yil 2-iyunda uning yaqin safdoshi, vitse-prezident va AMK yetakchisi Tabo Mbeki JAR prezidenti etib saylandi. Mamlakatda og'ir iqtisodiy ahvol mavjud. Aholining 30% ishsiz,turmush darajasi o'smayapti,qariyb yarim aholi savodsiz.OITSning keng tarqalganligi jiddiy muammo bo'lib,hukumat unga qarshi davlat miqyosida kurash olib bormoqda. Mamlakatning hozirgi rasmiy nomi-Janubiy Afrika Respublikasi.

4.2. Namibiyadagi milliy ozodlik harakatlari

1915-yilda Namibiya Janubiy Amerika qo'shinlari tomonidan bosib olindi. 1920-yilda esa JAR boshqaruvi ixtiyoriga berilgan edi. JARning ushbu hududni BMT himoyasiga berishdan bosh tortishi va bu yerda Irqchilik tartibini o'rnatishga urinishi qo'zg'olonga olib keldi. Namibiya olmosga boy hudud edi. Shu bois g'arb davlatlari janubiy afrikaliklarning bu yerda o'z hokimiyatini o'rnatish harakatini

qo'llab-quvvatladi. Biroq Angolaning ozodlik uchun kurashdagi g'alabasi namibiyaliklarni ham qo'llariga qurol olishga undadi.

Namibiyadagi ozodlik harakatiga Janubi-G'arbiy Afrika Xalq tashkiloti (SVAPO) rahbarlik qildi. Mazkur tashkilot 1966-yildan 7-yil davomida istilochilarga qarshi kurash olib bordi. 1978-yilda BMT xavfsizlik Kengashi Namibiya JAR qo'shinlarining olib chiqib ketilishi talab qilingan rezolyutsiya qabul qildi va SVAPOni "Namibiya xalqining yagona haqiqiy vakili" deb tan oldi. BMT Xavfsizlik kengashi, shuningdek, mamlakatda umumxalq saylovi o'tkazishga qaror qildi. Biroq ushbu qarorni amalga oshirish uchun yana o'n-yil vaqt o'tdi. 1989-yildagina JAR Namibiya hududidan o'z qo'shinlarini olib chiqib ketishga rozi bo'ldi. 1991-yilda o'tkazilgan saylovlar SVAPOga g'alaba keltirdi. Uning yo'lboshchisi Sem Nuomo mustaqil mamlakat prezidenti etib saylandi. Biroq, erkin rivojlanish yo'li murakkab kechdi. 2001-yil yanvarda Zambezi daryosiga yagona olib boradigan joy - Kaprivi tor yo'lida yashovchi qabilaning separatistlar harakati bilan mojaro chiqdi. Tropik Afrikaning Nigeriya, Gabon, Chad, Ruanda, Senegal, Mali, Gambiya, Zimbabve, Zambiya kabi mamlakatlarda hokimiyatning mahalliy xalq vakillari qo'lga o'tishi konstitutsiya doirasida amalga oshirildi. Sobiq mustamlakachilar hokimiyatni u yoki bu darajadagi mo'tadil siyosiy tashkilotlar qo'lga topshirishga urinishdi. Ushbu davlatlarning ko'pchilik qismi iqtisodiy rivojlanmagan, asosiy boyligi esa biror-bir qishloq xo'jalik o'simligi sanaladi, madaniyat - rivojlanish darajasi o'ta past. Ularning "mustaqilligi" va "suverenitetli"gi rasmiy jihatdan tan olingan xolos, amalda esa ko'p jihatdan sobiq mustamlakachilariga bog'liq. Sobiq istilochilar hozirda ham bu yerda harbiy bazalariga ega va ichki hamda tashqi siyosatni nazorat qilib turadi. Bu mamlakatlarda tez-tez hukumat almashuvi, harbiy to'ntarishlar bo'lib turadi. Odatda, bunday voqealar ortida o'z manfaatlari yo'lida rahbariyatni almashtirib turuvchi sobiq mustamlakachilar turadi.

4.3 Mozambikdagi milliy ozodlik harakatlari

Portugaliyalik mustamlakachilar Mozambikni 16-19 asrlar davomida bosib oldilar. Portugaliyaning iqtisodiy zayifligi tufayli ikkinchi jahon urushiga qadar Mozambik ekonomikasiga asosan Angliya kapitali ko'proq kiritilgan bo'lsa, urushdan keyin AQSh kapitali katta hajmda kiritila boshladi. Ikkinchi jahon urushidan keyin mamlakat ekonomikasiga Portugaliya kapitali ham aktiv ravishda kiritildi. Chet el kompaniyalari cheklanmagan huquqlarga ega edi. Natijada Mozambik xalqi ikki tomonlama mustamlaka zulmi bilan ezilardi.

Imperializm mustamlakachilik sistemasi krizisi va yemirilishi davrini boshlab bergan Oktabr revolyutsiyasi Mozambikka, uning ozodlik harakatiga ham ta'sir ko'rsatdi. 1920-yil sentabrda Lorensa-Markish portining temir "yo'lchi ishchilari ish haqini oshirish uchun, bu masalada mozambikliklarning kamsitilishiga qarshi ish tashladilar. Bu harakatga shahardagi boshqa korxonalarning ishchilari ham qo'shildilar. Portugaliyaning mustamlakachi ma'murlari harakatni rahmsizlik bilan bostirdilar.

Ulug' Oktabrdan keyin Mozambikda va uning tashqarisida mamlakat ozodligi uchun kurashuvchi tashkilotlar tashkil topa boshladi. Shunday tashkilotlardan biri 1920-yili Lissabonda mozambiklik studentlar tomonidan tashkil etilgan Afrika ligasi tashkiloti edi. Bu tashkilot Mozambik ozodlygi g'oyalarini tarqatgan bo'lsada, lekin vatandan olisda bo'lganligi uchun muhojir revolyutsionerlarning kichik bir gruppasi doirasidan chiqa olmadi. 20-yillar boshida Mozambikda Afrika gilziyasi, keyinchalik afrikaliklar uyushmasi tashkiloti vujudga keldi. Bu tashkilot bir qator radikal talablari bilan mustamlakachilarni tashvishga soldi.

1951-yili Mozambikni Portugaliyaning "Dengiz orti viloyati" deb e'lon qilgan qonun qabul qilindi. 1954-yili "Erli aholi uchun nizom" qonuni kuchga kiritildi, bunga ko'ra, mamlakat aholisi turli xil fuqorolik huquqlariga ega bo'lgan "sivilizatsiyali" va "sivilizatsiyasiz" tabaqalarga ajratildi. Mozambik aholisi asosan "sivilizatsiyasiz" tabaqaga kiritildi va siyosiy, iqtisodiy huquqlardan mahrum

etildi³⁴.

Mozambik xalqi mustamlaka zulmiga qarshi uzluksiz kurash olib bordi. 1925-yili mamlakatda dokerlar va transport ishchilarining yirik ish tashlashi bo'lib o'tdi. Ish tashlash siyosiy tusda bo'lib, ishchilar tub aholiga teng huquqlar berishni, mamlakatga avtonomiya huquqi berilishini talab qildilar. Bunday ish tashlashlar 1947–1949, 1951, 1956 va 1963-yillarda ham faol davom etdi. 1960-yili ajnabiy mustamlakachilar plantatsiyalarida ishlovchi batraklarning yirik g'alayoni bo'ldi. Lekin bu g'alayon qurol kuchi bilan bostirildi, 600 dan ortiq batrak o'ldirildi.

Mamlakat ozodligi uchun kurashayotgan turli milliy partiyalar ko'pincha quvg'inda va muhojirlikda edi. Ikkinchi jahon urushidan keyingi milliy-ozodlik ko'tarilishlarida xalq ommasiga to'g'ri yo'l boshchilik qilgan, turli qabilalar ozodlik harakatlarini bir butun qilib uyushtirgan Mozambik Ozodligi partiyasi (FRELIMO) 1962-yil sentabrda Dorussalomda o'zining I s'ezdiga yig'ildi. S'ezd partiyaning markaziy organlarini sayladi, ustav va programmasini qabul qildi. FRELIMO Markaziy Qomiteti raisligiga Eduardo Mondlane saylandi. S'ezd Mozambik xalqiga barcha vatanparvar kuchlarni FRELIM atrofiga birlashtirish haqida Murojatnoma elon qildi. Shundan boshlab, erksevar, jafokash mazambik xalqining ozodlik kurashida yangi davr boshlandi.

FRELIMO Mozambik ozodligi to'g'risida Portugaliya hukumati bilan muzokaralar olib borishga harakat qilib ko'rdi, biroq, bundan natija bo'lmagach, partiya 1964-yil sentabrda xalqqa murojaat qilib, uni mustamlaka asoratiga qarshi qurolli kurashga chaqirdi. Mozambik vatanparvarlari qurolli kurashi 11-yil davom etdi. Kurash davrida muntazam ozodlik armiyasi vujudga keldi. Bu armiya mustamlakachilardan ozod etgan rayonlarda xalqchil, demokratik tadbirlar amalga oshirildi, mahalliy hokimiyat organlari barpo etildi, agrar islohotlar o'tkazila boshlandi, savodsizlikni tugatish, maktablar ochish tadbirlari ko'rildi. Xotin-qizlarga erkaklar bilan teng huquqlar berildi. Bu hol FRELIMO va xalq-ozodlik armiyasining mamlakatdagi obro'sini oshirdi. Mustamlakachilar ozodlik

³⁴ Нуриддинов З.Р. Осиё ва Африка мамлакатларининг энг янги тарихи –Т.: Ўқитувчи, 1982.-В.226.

armiyasiga qarshi o'zlarining yaxshi qurollangan va puxta ta'lim ko'rgan katta qo'shin qismlarini ishga soldilar.

Mozambik xalqi ozodlik harakatining muvaffaqiyatlari Portugaliyada 1974-yil aprelda bo'lib o'tgan burjua-demokratik revolyutsiyada ham o'ziga xos rol o'ynadi. Bir tomondan, Mozambik ozodlik harakatini qurol kuchi bilan bosa olmaganliklari, ikkinchi tomondan metropoliyadagi revolyutsiya natijasida mustamlakalarga mustaqillik berish talabi kuchayganligi tufayli mustamlakachilar 1974-yil 7 sentyabrda Lusakada butun xokimiyatni (Mozambikka ozodlik berilganga qadar) FRELIMOga berishga rozi bo'lib, bitim imzoladilar. 1975-yil 25 iyunda Mozambikda Portugaliya bayrog'i tushirilib, Mozambik Xalq Respublikasi e'lon qilindi³⁵.

Yosh respublikaga mustamlakachilikdan nihoyatda og'ir meros qoldi. Qishloq xo'jaligi bir tomonlama rivojlantirilgan bo'lib, asosan paxta va yeryong'oq yetishtirishga moslashtirilgan edi. Qayta ishlovchi sanoat ham shunga ixtisoslashgan edi.

Xalq hokimiyati mamlakat sanoati va qishloq xo'jaligida yirik davlat sektori tashkil etishga alohida e'tibor berdi. Xalq hokimiyatining dastlabki dekretlaridan birida yer, o'rmon va qazilma boyliklar davlat mulki, deb e'lon qilindi. Mustamlakachilar mulki bo'lgan bir qator yirik sanoat korxonalari, banklar, straxovanie kompaniyalari natsionalizatsiya qilindi. Turistik mehmonxonalar, xususiy klinika va kasalxonalar, xususiy maktablarning davlat qo'lga o'tkazinishi, yuridik sohada xususiy praktikaning tugatilishi ijtimoiy hayotdagi muhim tadbirlar bo'ldi.

Hozir Mozambik o'tish davri ekonomikasi sharoitida yashamoqda. Bu FRELIMO ning 1977-yil fevralda bo'lib o'tgan III s'ezdida ham ta'kidlab o'tilgan. Mamlakat qishloq xo'jaligini kooperativlashtirish muvaffaqiyatli davom etmoqda. 1979-yili mamlakatda 30 mingdan ortiq dehqon xo'jaligini birlashtirgan 500 dan ortiq qishloq xo'jalik kooperativlari ishladi. Xalq hokimiyati sanoatning ayrim

³⁵ Нуриддинов З.Р. Осиё ва Африка мамлакатларининг энг янги тарихи –Т.: Ўқитувчи, 1982.-В.227.

tarmoqlarini o'z qo'liga olib, neft va neft maqsulotlari, ko'mir, to'qimachilik, energetika, baliqchilik, dengiz transiorti bo'yicha tarmoq birlashmalarini tashkil etdi.

Mozambnk Xalq Respublikasi sanoatning davlat sektorini kuchaytirish maqsadida 1978–1979-yillari jami 58-korxonani davlat qo'liga oldi. Davlat plan komissiyasi,tashqi savdo mini-strligi tuzildi,tashqi savdo sohasida davlatmonopoliyasi o'rnatildi.Hukumat 1979–1980-yillarga mo'ljallangan ikki-yillik plan va 1990-yilgacha bo'lgan davrni qamragan perspektiv planni qabul qildi.

Mozambik Xalq Respublikasiga mustamlakachilikdan vayronlik va qashshoqlik, jaholat va nodonlik meros qoldi. 1975 ylli mamlakatning katta yoshli aholisidan faqat 7 protsenti savodli edi. Mamlakatda savodsizlikni bitirish bosqichma-bosqich olib borildi. 1975–1980-yillarda 600 mingga yaqin katta yoshli mozambikliklar savod chiqardilar. 1980-yili maktablarda 1 mli.650 ming o'quvchi ta'lim oldi. Mamlakatda umumiy majburiy bepul ta'lim, sog'liqni saqlash ishlari joriy etildi. Oliy ta'lim,professional-texnika ta'limi yo'lga qo'yildi.

Tashqi siyosat sohasida Mozambnk Xalq Respublikasn pozitiv betaraflik yo'lini tanladi. Afrika Birligi Tashkiloti va qit'adagi boshqa progressiv tashkilotlar ishida faol qatnashmoqda, 50 dan ortiq davlatlar bilan diplomatik, 70 dan ortiq mamlakat bilan iqtisodiy aloqalar olib bormoqda.

4.4 Angoladagi milliy ozodlik harakatlar

1885–1894-yillarda Portugaliya, Belglya, Germaniya va Angliya o'rtasida imzolangan bir qator bitimlar hozirgi Angolaning chegaralarni belgilagan hamda uning Portugaliya mustamlakasi ekanligini e'tirof etgan edi.Mustamlakachilar 1878-yilgacha Angolada qulchilikni saqlab keldilar. O'sha-yili kulchilikni bekor qilish haqida qonun qabul etilganiga qaramay, qulchilik XX asr boshlarigacha davom etdi.

Angola xalqi mustamlakachilik tartiblariga qarshi tinmay kurashib keldi. 1914–1915-yillarda mamlakat janubida mustamlaka asoratiga qarshi qurolli

chiqishlar bo‘lib o‘tdi. 1917-yili Bengeli rayonida xalq qo‘zg‘oloni boshlandi. Mustamlakachilar bu qo‘zg‘olonni bostirish uchun muntazam armiyaning katta qismlarini ishga soldilar, kuchli jazolash otryadi tashkil etdilar. Afrikadagi birorta mustamlakada ham bunday qattiqqo‘l va yovuz jazo otryadi yo‘q edi.

20-yillar boshida mamlakatning garbiy va shimoliy rayonlarida mustamlaka zulmiga, jumladan, assimilyatsiyaga (zo‘rlab portugallashtirish siyosatiga) qarshi qo‘zg‘olonlar bo‘lib o‘tdi. Bu qo‘zg‘olonlar 30-yillarda ham davom etdi. Qishloqlarda dehqonlar mustamlakachilarga qarshi kurashish uchun diniy mazhablar tashkil etdilar. Shaharlarda esa, milliy ziyolilar xalqni kurashga qo‘zg‘atishga yordam beruvchi madaniy-oqartuv tashkilotlari tashkil etdilar.

50-yillarda Angola xalqining mustamlakachilarga qarshi kurashi ayniqsa kuchaydi. Mamlakatda vatanparvar partiyalar tashkil topdi. 1956-yili bir necha so‘l tashkilotlar negizida Angolani ozod qilish xalq harakati (MPLA) milliy revolyutsion partiyasi vujudga keldi. Bundan ilgari Ang‘ola aholisi ittifoqi (UPA) tashkil topgan edi. 1961-yili Angola xalqining mustamlakachilarga qarshi MPLA va UPA rahbarligidash qurolli kurashi boshlandi³⁶.

1962-yil dekabrda MPLAning I milliy konfsrensiyasi mamlakatdagi milliy-ozodlik harakatlarini umumxalq harakatiga aylantirishga qaror qildi. Angola aholisi ittifoqi (UPA) mustamlakachilarga qarshi umumxalq kurashidan bosh tortdi, ajnabiy zolimlarga qarshi yagona antiimperialistik frontni buzishga intildi. 1965-yili Dorussalomda Portugaliya mustamlakalaridagi milliy ozodlik uchun kurashuvchi tashkilotlarning II konferensiyasi bo‘lib o‘tdi. Bu konferensiyaning tashkilotchilaridan biri–MPLA partiyasi bo‘ldi. Bu konferepsiya mustamlakalarining ajnabiy zolimlarga qarshi harakatlarini uyg‘unlashtirish va markazlashtirish to‘g‘risida qaror qabul qildi.

1968-yildan boshlab Angola xalqining milliy-ozodlik harakati yangi, yuqori bosqichga ko‘tarildi. O‘sha-yili MPLA qurolli kuchlarining to‘rtta fronti ochildi. MPLA raisi Agostino Neto partiya shtabkvartirasi Kongodan Angolaga

³⁶ Нуриддинов З.Р. Осиё ва Африка мамлакатларининг энг янги тарихи –Т.: Ўқитувчи, 1982.-В.230

ko‘chirilganligini va milliy-ozodlik harakatini bevosita o‘zi boshqarajagini e‘lon qildi. Mustamlakachilar Angola xalqining qurolli kurashiga barham berish uchun ko‘p nayrang ishlatdilar. Chunonchi, 1972-yil iyulda Angolaga “mahalliy avtonomiya” huquqi berdilar va uni Portugaliyaning “shtati”,deb e‘lon qildilar. Biroq mamlakat Portugalnyaga qaramligicha qola berdi.

Portugaliyada 1974-yilgi aprel revolyutsiyasidan keyin Angola milliy-ozodlik harakati hal qiluvchi davrga kirdi. Portugaliyaning yangi hukumati Angolaning o‘z huquqini o‘zi belgilashi va mustaqilligini tan oldi. Portugaliya hukumati bilan MPLA rahbarlari o‘rtasida kelishib olingan bitimga ko‘ra qurolli kurash to‘xtatildi. Xalq ommasi 14-yillik dahramonona qurolli kurashdan so‘ng 1975-yil 11 noyabrda Angola Xalq Respublikasi e‘lon qilinishiga erishdi. Angola Respublikasi prezidentligiga MPLA raisi Agostino Neto saylandi. Sobiq Ittifoq birinchilar qatori Angola Xalq Respublikasini tanidi³⁷.

Angola Xalq Respublikasiga mustamlakachilikdan nihoyatda og‘ir meros qolgan edi. Qishloq xo‘jaligi imperialistik monokulturaga moslashgan bo‘lib,sanoat asosan kon-ma‘danchilikdan iborat edi. Buning ustiga respublika e‘lon qilingan dastlabki vaqtlarda davom etgan chet el intervyonsiyasi mamlakat ekonomikasiga juda katta zarar yetkazdi. 130 ko‘prik buzib tashlangan20 ming yuk avtomashinasi, ko‘plab qurilish va qishloq xo‘jalik texnikasi yo‘q qilingan, yuz minglab bosh qoramol haydab ketilgan edi.

Iqtisodiy vayronalik, malakali kadrlarning yetishmasligi bilan birga ishsizlikning ko‘pligi, turli konlar va korxonalardagi sabotaj, xalqaro reakspya tomonidan tashkil etilgan josusliklar xalq hokimiyati ahvolini nixoyatda qiyinlashtirib qo‘ygan edi.

1976-yil oktabrda prezident Agostino Neto boshchiligidagi Angola Xalq Respublikasi partiya-davlat delegatsiyasi Sovet Ittifoqiga rasmiy vizit bilan keldi. Moskvada har ikki mamlakat o‘rtasida do‘stlik na o‘zaro hamkorlik shartnomasi imzolandi. Vizit paytida KPSS bilan MPLA o‘rtasida partiyaviy hamkorlik

³⁷ Нуриддинов З.Р. Осиё ва Африка мамлакатларининг энг янги тарихи –Т.: Ўқитувчи, 1982.-В.230

to'g'risida ham bitim imzolandi. Bu shartnoma va bitimlar Angola Xalq Respublikasining siyosiy, iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlashda, vayron bo'lgan xo'jaligini tiklashda katta ahamiyatga ega bo'ldi³⁸.

1977-yil dekabrda mamlakat poytaxti Luandada MPLA ning I s'ezdi bo'lib o'tdi. S'ezd partiya nomini MPLA–Mehnat partiyasi, deb atashga qaror qildi. S'ezd partiyaning programmasi va ustavini qabul qildi, respublikani 1978–1980-yillarda rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini maqulladi, partiyaning rahbar organlarni sayladi, partiya va xalq sotsialistik orientatsiya yo'lidan borshlini ta'kidladi.

Angola Xalq Respublikasi xukumati bir qator xalqchil, demokratik tadbirlarni amalga oshirdi. Xalqaro imperializmning mamlakatdosh pozitsiyalariga jiddiy zarbalar berdi. Angola Xalq Respublikasi va MPLA ping muhim tadbirlaridan biri–sanoatni natsionalizatsiyalash va qudratli davlat sektori barpo etish uchun harakat boshlaganligidir. 1976-yil oxirida xususiy banklarning natsionalizatsiya qilinishi hamda Angola Milliy banki va Angola Xalq banki tashkil etilishi katta ahamiyatga ega bo'ldi. Qurilish materiyallari, sanoatni jihozlash korxonalari, kemasozlik, kon sanoati, mashinasozlik, to'qimachilik va boshqa sanoat tarmoqlari ham natsionalizatsiya qilindi. Xalq hokimiyati mamlakatda agrar islohot o'tkazish bilan birga qishloq xo'jalik kooperativlari tuzishga ham katta e'tibor bermoqda.

Angolada xalq hokimiyati va MPLA–Mehnat partiyasi tashabbusi bilan aholining savodxonligini oshirish yo'lida jiddiy tadbirlar ko'rildi. Mamlakatda ta'limning hamma zvenolari bepul qilib qo'yildi. Umumiy majburiy boshlang'ich ta'lim joriy etildi. 1976-yiliyiq 600 ming bola maktablarga o'qishga tortildi. Xususiy va cherkov maktablari tugatildi. Mamlakatda bepul meditsina xizmati joriy qilindi.

1980-yil MPLA–Mehnat partiyasining favqulodda s'ezdi bo'lib o'tdi. S'ezd mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning 1981–1985-yillarga hamda 1990-

yilgacha bo'lgan davrga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlarini ma'qulladi.

XULOSA

Mamlakatimiz o'z mustaqilligini e'lon qilgach jamiyat ijtimoiy siyosiy hayotining barcha jabhalarida keng o'zgarishlar davrini boshlab berdi. Bu jarayon intellektual qilinishi lozim bo'lgan dolzarb muammolarni ko'ndalang qilib qo'ydi. Chunki sobiq ittifoq tarixshunosligi tomonidan ilmiy tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganilgan mavzular ma'naviy jihatdan yaroqsiz holda ekanligi ikkinchidan esa tarixni o'rganishdagi ko'pgina masalalarni tarixni "qora dog"lari sifatida talqin qilinishi mustaqillikning ilk kunlaridanoq qilinishi lozim bo'lgan dolzarb masalaga aylandi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek "biz mustaqil taraqqiyot yillarida to'plangan tajribamizga tayanib, hayotimizni yaxshilash va isloh qilish yo'lida davlat va jamiyat qurilishining eng asosiy maqsad va vazifalarini aniqlab olmog'imiz zarur"³⁹.

Jahon tarixida davlatlar taraqqiyotidagi yutuq va tajribalardan habardor bo'lish hamda uni hayotda qo'llash barkamol avlodning tarbiyasiga o'ziga xos ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bugun biz tarixiy bir davrda halqimiz o'z oldiga ezgu va ulug' maqsadlar qo'yib, tinch va osoyishta hayot kechirayotgan, avvalom bor o'z kuch va imkoniyatlariga tayanib, demokratik davlat va fukorolik jamiyat qurish yo'lida ulkan natijalarni qo'lga kiratayotgan bir zamonda yashamoqdamiz.

Biz taqdirimizni o'z qo'limizga olib, azaliy qadriyatlarimizga suyanib, shu bilan birga, taraqqiy topgan davlatlar tajribasini xisobga olgan xolda, mana shunday olijanob intilishlar bilan yashayotganimiz, xalqimiz asrlar davomida orziqib kutgan ozod, erkin va farovon xayotni barpo etayotganimiz, bu yo'lda erishayotgan yutuqlarimizni xalqaro hamjamiyat tan olgani – bunday imkonitlarning barchasini aynan mustaqillik berganini bugun hammamiz chuqur anglamoqdamiz.

Ana shu haqiqatni xalqimiz har tomonlama to'g'ri tushunib, tanlagan

³⁹ Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. – T.: O'zbekiston, 2000. - B.7.

taraqqiyot yo‘limizni ongli ravishda qabul qilgani va qo‘llab – quvvatlayotgani oldimizga qo‘ygan maqsadlarga, erishishning asosiy manbai va garovi ekanini hayotning o‘zi tasdiqlamoqda.

Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo‘lmasligi, farzadlarimizning bizdan ko‘ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo‘lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma‘naviy tarbiya masalasi, xech shubxasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi. Agar biz bu masalada hushyorlik va sezgirligimizni, qat‘iyat va ma‘suliyatimizni yo‘qatsak, bu o‘ta muhim o‘z xoliga, o‘zibo‘larchilikka tashlab qo‘yadigan bo‘lsak, muqaddas qadriyatlarimizga yo‘g‘rilgan va ulardan oziqlangan ma‘naviyatimizdan, tarixiy xotiramizdan ayrilib, oxir oqibatta o‘zimiz intilgan umumbashariy taraqqiyot yo‘lidan chetga chiqib qolishimiz mumkin.

Mu‘lumki, biz boshimizdan kechirgan sobiq mustabit tuzim davrida milliy ma‘naviyatni rivojlantirishga mutloqo yo‘l qo‘yilmagan. Aksincha, xalqimizning tabiati, yashash tarziga yod bo‘lgan mafkurani har qanday yo‘llar va zo‘ravonlik bilan joriy etishga harakat qilingan. SHuning uchun ham istiqlolni dastlabki kunlaridanoq bu sohadagi ahvolni tubdan o‘zgartirish yurtimizda eng dolzarb va hal qiluvchi vazifalardan biriga aylandi.

O‘tgan davr mobaynida eski tuzumdan og‘ir me‘ros bo‘lib qolgan ana shunday illatlarga el yurtimizga nisbatan kamsitish va milliy manfaatlarimizni mensimaslik xolatlariga malham berish, ko‘hna qadriyatlarimiz, din-u diyonatimizni tiklash, hayotimizda tarixiy adolatimizni qaror topdirish, yangi jamiyat qurish yo‘lida xalqimizning ma‘naviy yuksalishimizni o‘z oldimizga qo‘ygan olijanob maqsadlarga yetishda hal qiluvchi me‘zon deb qarash va shu asosida ish olib borish biz uchun doimo ustuvor vazifa bo‘lib kelganini bugun ham e‘tiborimiz markazida turganini takidlash lozim.

Bir so‘z bilan aytganda, tarixiy voqe‘likka mana shunday qarash, jamu jam bo‘lib yashash tuyg‘usi biz uchun hayot falsafasiga, yana ham aniqrog‘i, hayot qoidasiga aylanib ketgan. Zamonaviy tilda aytadigan bo‘lsak bu milliy

mentalitetimizning asosini tashkil etadigan bizni boshqalardan ajratib turadigan shunday bir hususiyatki uni sezmaslik, anglamaslik, ko'rmalik umuman mumkin emas.

G'arb olamida esa odamlarning hayot tarzida jamoaviylikdan ko'ra individualizm, shaxsiy manfaat tamoni ustunlik qilishini kuzatish mumkin. Bu ham muayyan obyektiv ijtimoiy tarixiy omillar tufayli shakllangan voqealik bo'lib uni ham inkor etib bo'lmaydi.

Albatta, O'rta Osiyo muhitida jamoa, maxalla bo'lib bir biriga mehr oqibatli bo'lib yashaydigan insonlar, davr qanchalik o'zgarmasin tarix sinovidan o'tgan o'z qadriyatlariga sodiq bo'lib yashashni ma'qul ko'rar ekan buni zamonaviy fikrlaydigan, dunyoga teran nazar tashlaydigan odam to'g'ri tushunishi, tan olishi va uni hurmat bilan qabul qilishi lozim.

Ming afsuski, mana shunday tarixiy haqiqatni anglamaydigan yoki anglashni istamaydigan chet eldagi ba'zi siyosatchi va arboblarning nafaqat siyosat yoki iqtisodiyot, balki ma'naviyat bobida ham bizga aql o'rgatishga azaliy hayot tarzimiz ruhiy dunyoimizga yod bo'lgan qarashlarni majburan joriy etishga urinmoqda.

Bunday kuchlarning g'arazli munosabati avvalo boy va qadimiy ma'naviyatimizga qarshi qaratilgani ular xalqimizni shu bebaho boylikdan judo qilish uchun har xil usullar vositalar bilan ham zo'r berib urinayotgani barchamizni tashvishlantirmasdan qolmaydi albatta.

Nega deganda insoniyatning ko'p ming yillik tajribasi shundan dalolat beradiki dunyodagi zo'ravon va tajovuskor kuchlar qaysi bir xalq yoki mamlakatni o'ziga tobe qilib bo'ysundirmoqchi, uning boyliklarini egallamoqchi bo'lsa avvalam bor, uning qurolsizlantirishga, ya'ni eng buyuk boyligi bo'lmish milliy qadriyatlari, tarixi va ma'naviyatidan judo qilishga urinadi. Buning tasdiqini uzoq va yaqin tarixdagi ko'p misollarda yaqqol ko'rish mumkin. Chunki har qaysi millat yoki xalqning ma'naviyati uning bugungi hayoti va taqdirini o'sib kelayotgan farzandlarining kelajagini belgilashda shak-shubhasiz hal qiluvchi

ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda dunyoning ayrim hududlarida ana shunday harakatlar natijasida katta ma'naviy yo'qotishlar yuz berayotgani millatning asriy qadriyatlari, milliy va turmush tarzi izdan chiqayotgani axloq odob, oila va jamiyat hayoti, ongli yashash tarzi jiddiy xavf ostida qolayotganini kuzatish mumkin.

SHuning uchun ham bu Sharq yoki G'arb mamlakatlari bo'ladimi, olis Afrika yoki Osiya qit'asi bo'ladimi, jahonning qaysi bir burchagida bo'lmasin manaviyatga qarshi qandaydir tahdid paydo bo'ladigan bo'lsa, o'zining bugungi kuni va istiqbolini o'ylab yashaydigan har bir ongli inson, har bir xalq tashvishga tushishi tabiiy albatta. Bu haqda gapirganda faqat bitta millat yoki xalq haqida fikr masalani o'ta tor tushunish bo'lar edi. Ya'ni bu o'rinda so'z faqat bizning ma'naviyatimizga qaratilgan tajovuzlar haqida azaliy fazilatlarimiz, milliy qadriyatlarimizni ana shunday hujumlar xususidagina borayotgani yo'q. Muhim ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan ushbu muammoni keng miqyosda dunyoning barcha mamlakatlari va xalqlari dahldor masala sifatida o'rganish, tahlil qilish va baholash maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston istiqbolga erishgandan so'ng jamiyat ijtimoiy siyosiy hayotining barcha jabhalarida keng o'zgarishlar davri boshlandi. Bu jarayon intellektual sohada ham o'z aksini topdi.

Eng asosiy ijtimoiy gumanitar fan hisoblangan tarix fani oldiga hal etilishi lozim bo'lgan dolzarb muammolarni ko'ndalang qilib qo'ydi. Oqibatda sovet tarixshunosligi nuqtai nazaridan o'rganilgan mavzular qaytadan ilmiy tadqiqot sifatida o'rganila boshlandi.

Dastlab Shimoliy Afrika davlatlari qattiq qonli kurash hisobiga mustaqillikka erishdilar. 1960-yil Afrika tarixiga "Afrika-yili" nomi bilan kirdi. Shu-yili bir yo'la 17 ta davlat mustaqillikka erishdi. Buyuk Britaniya va Fransiya mustamlaka imperiyalari parchalanib borayotgan bir sharoitda Belgiya Kongo mustaqilligini tan olishga majbur bo'ldi. Afrikaning ayrim mamlakatlarida mustaqillikka erishish nisbatan tinch yo'l bilan (aholining ommaviy namoyishlari;

fuqarolik bo'ysunmasligi) amalga oshdi. Mustamlakachilik metropoliyadan ko'chib kelib joylashgan bir guruh oq tanlilar jamoasiga tayangan joylarda esa og'ir qurolli kurash olib borish yo'li bilan mustaqillikka erishildi. 60-yillar oxiriga kelib ingliz, fransuz, belgiya mustamlakachi imperiyalari parchalandi. Faqat bir imperiya – Portugaliya imperiyasi yashashda davom etdi. Portugaliyaning Afrikadagi mustamlakalari (Mozambik, Angola, Gvineya-Bissau) uning dengizorti hududlari deb e'lon qilingan edi. Bu “dengizorti hududlar” aholisining milliy-ozodlik kurashi 1974-yilgacha davom etdi va u g'alaba bilan yakunlandi. Portugaliya o'z mustamlakalarining mustaqilligini tan olishga majbur bo'ldi. Kongo (Zair), Gvineya, Angola, Mozambik, Namibiya tropik Afrikada yirik davlatlar hisoblanadi.

1980-yilda yana bir mustaqil Afrika davlati – Zimbabve davlati vujudga keldi. Bu davlatning vujudga kelishi juda og'ir kechdi. Gap shundaki, Rodeziyada (Buyuk Britaniya mustamlakasi) kam sonli, biroq uyushgan oq tanlilar ham yashardi. Ular 1965-yilda Rodeziyani mustaqil deb e'lon qildilar. Biroq uni Buyuk Britaniya ham, BMT ham tan olmadi. Mahalliy afrikaliklar esa ozodlik uchun qurolli kurash boshladilar. Yakkalanib qolgan oq tanlilar 1979-yilda muzokara boshlashga majbur bo'ldilar. Uning oqibatida davlat afrikaliklar qo'liga o'tdi. 1980-yilda Rodeziya o'rnida mustaqil, yangi Zimbabve davlati tashkil etilganligi e'lon qilindi.

Afrikadagi oxirgi mustamlaka Janubi-G'arbiy Afrika edi. Birinchi jahon urushiga qadar bu hudud Germaniya mustamlakasi bo'lgan. Urushdan so'ng Millatlar Ligasi uni boshqarish huquqini Janubiy Afrika Respublikasiga (JAR) berdi. JAR dastlab bu hududni o'ziga qo'shib olishga urindi. Buning uddasidan chiqa olmagach, u yerda oz sonli oq tanlilar hukumatini tuzishga harakat qildi. Bunga javoban mahalliy aholi 1966-yilda qurolli kurash boshlashga majbur bo'ldi. BMT 1973-yilda JARni Janubi-G'arbiy Afrikani boshqarish huquqidan mahrum etdi. Mahalliy aholining milliy-ozodlik kurashi 1989-yilda g'alaba bilan yakunlandi. Shu-yili Janubi-G'arbiy Afrika Namibiya nomi bilan mustaqil davlat

deb e'lon qilindi. Shu tariqa mustamlaka Afrika xalqlari milliy-ozodlik kurashi g'alaba bilan yakunlandi. Bir vaqtlar deyarli butunlay mustamlakaga aylantirilgan Afrikada 52 ta mustaqil davlat vujudga keldi. Janubiy Afrika Respublikasida 1948-yilda o'tkazilgan parlament saylovida Afrika yerlarining (oq tanli aholi) millatchi partiyasi g'alaba qozondi. Bu partiya rahbari D. Malan boshchiligida tuzilgan hukumat apartheid siyosatini amalga oshirishini e'lon qildi. Bu davlatning tub aholisi bo'lgan negrlarga, bu yerga kelib qolgan hindlarga nisbatan qo'llangan irqiy kamsitish, ularni oq tanlilardan ajratib qo'yish ularni asosiy fuqarolik huquqlaridan mahrum etish hamda o'zlari uchun ajratilgan alohida joylarda yashashga majbur etish siyosati edi.

Mamlakat maydonining 87 foizi oq tanlilar uchun, atigi 13 foizi afrikaliklar uchun biriktirib qo'yildi. Bundan maqsad – afrikaliklarning mustahkam Irqchilik tartiblarini yo'qotish maqsadida birlashishiga yo'l qo'ymaslik edi. JAR hukmron doiralari Irqchilik siyosatini tobora kuchaytirdilar. 1984-yilda uch palatali parlament (oqlar, negrlar va hindlar uchun alohida-alohida)tuzildi. Irqchilik tartibiga qarshi kurash Biroq afrikaliklar irqchilar rejimi o'zlariga taqdim etgan taqdirga tan berganlari yo'q. Ular XX asrning eng jirkanch hodisalaridan biri –apartheid siyosatiga qarshi qurolli kurash olib bordilar. Bu kurashga Afrika Milliy Kongressi (AMK) rahbarlik qildi. AMK maqsadi – Janubiy Afrikada irqidan qat'i nazar barcha fuqaro qonun oldida teng bo'lishini ta'minlaydigan demokratik davlat barpo etish edi. Bu partiyaga XX asrning buyuk siyosat va davlat arboblardan biri N. Mandela rahbarlik qildi. Afrika xalqining bu kurashi xalqaro taraqqiyparvar kuchlar tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Hukumat tub aholining o'z haq-huquqi yo'lidagi kurashiga qarshi shafqatsiz kurash olib bordi. Biroq afrikaliklar kurashini to'xtatib bo'lmadi. 1989-yilda JAR prezidentligiga F. Klerk saylandi. U davr realligini hisobga olib siyosat yurituvchi arbob edi. F. Klerk agar Irqchilik siyosati bekor qilinmasa, u oxir-oqibatda oq tanlilarni to'la halokatga olib kelishi mumkinligini anglab yetdi va 1990-yilda AMK faoliyatini taqiqlashni bekor qilish to'g'risidagi qonun qabul qilindi. Uning rahbari N. Mandela 1991-yilda umrbod

qamoq jazosidan ozod etildi. (U 27-yildan beri qamoqda edi.) Mamlakatda harbiy holat bekor qilindi. Barcha fuqarolarning, irqning tengligi e'lon qilindi. 1993-yilda barcha irq vakillarining tengligi asosida umumiy parlament saylovi o'tkazilishi to'g'risida bitim imzolandi. Ayni paytda oq tanlilar huquqi ham kafolatlanadigan bo'ldi. Saylov 1994-yilning 26-aprelida o'tkazildi va unda AMK to'la g'alaba qozondi. N. Mandela JARning birinchi qora tanli Prezidenti etib saylandi. Shu tariqa eng jirkanch illat – Irqchilikning to'la barham topishiga asos yaratildi. Afrika qit'asida mustahkam tinchlik yo'lidagi asosiy to'siqlardan biri – Irqchilikni bartaraf etish yo'lidagi buyuk xizmatlari uchun har ikki arbob – N. Mandela va F. Klerklar 1993-yilda Tinchlik uchun xalqaro Nobel mukofotiga sazovor bo'ldilar. 1999-yil 2-iyundagi saylovlarda N. Mandelaning safdoshi Tabo Mbeku Prezidentlik lavozimini egalladi.

Afrika qit'asi davlatlarining iqtisodiy taraqqiyot darajasi bir xil emas. Chunonchi, tropik Afrika Shimoliy va Janubiy Afrikadan keskin farq qiladi. Tropik Afrika davlatlari qit'aning eng qoloq davlatlaridir. Dunyo aholisining 10 foizini tashkil etuvchi Afrika qit'asida dunyo sanoat mahsulotining atigi 1 foizi ishlab chiqariladi, xolos. Bu yerdagi yana bir eng katta muammo - aholini oziq-ovqat bilan ta'minlash muammosidir. Bugungi kunda Afrikada qit'a aholisining deyarli 50 foizi qashshoqlikda yashamoqda. Oziq-ovqat ishlab chiqarish aholi o'sishiga nisbatan tobora orqada qolib bormoqda. Yana bir jiddiy muammo, etnik qirg'inlar, mojarolar muammosidir. Afrika davlatlari hayotida urug'-qabilachi-Mustaqillikni mustahkamlash yo'lidagi muammolar lik hayot tarzi kuchliligicha qolmoqda. Bir xalq turli davlatlar hududida yashamoqda. Masalan, 20 mln dan ortiq fulbe deb ataluvchi xalq boshqa xalqlarga nisbatan ko'pchilikni tashkil etmaydigan qilib turli davlatlarga bo'lib yuborilgan. Etnik nizolar davlatlar yaxlitligini katta xavf ostiga qo'ymoqda. Yana bir katta muammo – bu davlatlararo nizolar, harbiy to'qnashuvlar muammosi. Mustamlakachilar davlatlar chegaralarini atayin shunday belgilaganlarki, bu bora-bora davlatlararo nizolar manbayiga aylandi. Hozircha Afrika hamkorligi Tashkiloti to'qnashuvlar ildizlarini bartaraf etishga muvaffaq

bo'laolgani yo'q. Jiddiy muammolardan yana biri – tashqi qarz. Chunki tashqi qarz-yildan-yilga ortib bormoqda.

Musgakillikka ershigan qit'a xalqlarining milliy-ozodlik kurashi tepasida ishchilar sinfi turgan hamda bu kurashning asosiy harakatlantiruvchi kuchi mehnatkashlar ommasi bo'lgan mamlakatlarda milliy antiimperialistik revolyutsiyalar g'alaba qozondi. Bunday revolyutsiyalar jarayonida burjuademokratik revolyutsiyalarning barcha vazifalari amalga oshirilib, umumdemokratik, xalqchil tadbirlar o'tkazishga kirishildi. Bu mamlakatlarda jamiyatni rivojlantirish va boshqarishning yangi formasi–sotsialistik orientatsiya yo'li paydo bo'ldi. Sotsialistik orientatsiya–kapitalizm mavqelarini qisqartirib va tugata borib, asta-sekin sotsialistik revolyutsiya vazifalarini amalga oshirish yo'lidir. Endilikda Afrika qit'asidagi Angola, Benin, Gvineya, Jazoir, Kongo, Mozambik, Efiopiya singari mamlakatlar shu yo'ldan dadil olg'a bormoqdalar. Bu mamlakatlarda mehnatkashlarning marksizm-leninizm ta'limotiga amal qilgan ommaviy partiyalarini tuzish, sanoat va qishloq xo'jaligining davlat sektorini mustahkamlash, qishloq xo'jaligini kooperatsiyalash ishlari dadillik bilan olib borilmoqda. Eng mo'himi–mazkur mamlakatlarda hukumatni boshqarayotgan partiyalar ilmiy sotsializmni o'zlarining bosh va yezgu maqsadlari, deb e'lon qildilar.

Milliy-ozodlik harakati tepasida milliy burjuaziya turgan mamlakatlarning mustaqillikka erishilgandan keyingi taraqqiyoti boshqacha bo'ldi. Milliy burjuazniya hokimiyatni boshqarishga ojizlik qildi. Shuning uchun qit'aning bir qator mamlakatlarida tez-tez harbiy to'ntarishlar bo'lib turibdi. bir qancha yosh davlatlar iqtisodida xalqaro imperializm hal qiluvchi rol o'ynamoqda. Masalan, 1979-yili Afrika mamlakatlarida Angliya monopolistik kompaniyalarining 830, Fransiyaning 480, AQSh ning 400 ga yaqin, Belgiyaning 157 firma va filiallari amal qildi. AQSh har-yili qit'a mamlakatlaridagi o'z kapitalidan 1,5 milliard so'f foyda olmoqda."Bu uning mazkur mamlakatlarga berayotgan "xolis yordami"dan deyarli 8 baravar ortiqdir.

70-yillarda Afrika mamlakatlarining deyarli hammasida ishchilar harakati yuksaldi, kasaba soyuzlar faoliyati o'sdi. Bu mamlakatlar kommunistik va ishchilar partiyalarining 1978 yidi bo'lib o'tgan regional kengashi qit'a mamlakatlarida kapitalizm rivoji bilan ishchilar sinfi son jihatidan o'sayotganligini ta'kidladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида хавфсизликка таҳдид: барқарорлик шартларива тарққиёт кафолатлари. –Тошкент: Ўзбекистон, 1997.
2. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Тошкент: Шарқ, 1998.
3. Каримов И.А. Юксак маънавият енгилмас куч. –Тошкент: Маънавият, 2008.
4. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011.
5. Александров В.В. Новейшая история стран Европы и Америки. – Москва: 1988.
6. Алиева А.С. Всемирная история в таблицах в схемах. –Москва: 1999
7. Богданович И.Г. Страны мира энциклопедический словарь. –Москва: 1999.
8. Болоусов Л.С, История новейшего времени стран Европы и Америки 1945-2000 годы. –Москва: 2003.
9. Бузов В.И. История современного Востока XX–XXI века. Страны и правители. (Новейшая история Азии и Африки). –Москва: 2008.
10. Гадоев К. Сайёрамиз мўъжизалари. – Тошкент: 2012.
11. Жаҳон материаллари. Қисқача маълумотнома. – Тошкент: 2006.
12. Загладин Н.В. Всемирная История. Век XX. –Москва: 1999.
13. Кредер А.А. Новейшая история XX век. –Москва: 1996.
14. Lafasof M. Jahon Tarixi. – Т.: Turon Iqbol, 2010.
15. Нуриддинов З.Р. Осиё ва Африка мамлакатларининг энг янги тарихи –Т.: Ўқитувчи, 1982.
16. Поляк Г.Б. Всемирная история. С древнейших времён до наших дней. –Москва: 1997.

17. Пономарёв М.В. История Европы и Америки в новейшие время в вопросах и ответах. –Москва: 2008.
18. Родригес А.М. Новейшая История стран Азии и Африки XX века. – Москва: 2005.
19. Родригес А.М. Стран Азии и Африки в новейшее время в вопросах и ответах. –Москва: 2008.
20. Хидоятов Г.А. Всемирная История (1945-1999 гг) –Тошкент.: 2000.
21. Язьков Е.Ф. История новейшая времени стран Европы и Америки 1918-1945 годы. –Москва: 1989.

Foydalanilgan internet saytlarining nomlari:

- [http: // www.grid, rug.nl /ahc/](http://www.grid.rug.nl/ahc/)
- [http: // www.Librorary. Byu. edu/-rdh/eurodocs/](http://www.Librorary.Byu.edu/-rdh/eurodocs/)
- [http: // www.history.hanover,edu/texts.htm](http://www.history.hanover.edu/texts.htm)
- [http: // www.ucr.edu/h-gig/horuslinks.html](http://www.ucr.edu/h-gig/horuslinks.html)
- [http: // www.english. hss. cmu. edu/history](http://www.english.hss.cmu.edu/history)
- [http: // www.ukans.edu/history/vl/](http://www.ukans.edu/history/vl/)
- [http: // www.lib.muohio.edu/inet/subj/history/wwii/index.html](http://www.lib.muohio.edu/inet/subj/history/wwii/index.html)
- [http: // www.lib.byu.edu/-rdh/wwl/](http://www.lib.byu.edu/-rdh/wwl/)
- [http: // classics.mit.edu.](http://classics.mit.edu)
- [http: // www.washlaw.edu/forint/](http://www.washlaw.edu/forint/)
- [http: // www.yole.edu/Lawweb/avolon.htm](http://www.yole.edu/Lawweb/avolon.htm)

